

NURIDDIN XOLBOYEV

YAKKAXON
QO'SHIQCHILIK
(An'anaviy xonandalik)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

NURIDDIN XOLBOYEV

YAKKAXON QO‘SHIQCHILIK (An’anaviy xonandalik)

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas’ul muharrir:

Davron Qodirov - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi

Taqrizchilar:

M.Tojiboev - O‘zbekiston davlat konservatoriyasining professori, O‘zbekiston xalq xofizi

J.T.Shukurov - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Milliy qo‘shiqchiligi kafedrasi professori, O‘zbekiston Respublikasi San’at arbobi.



SO‘ZBOSHI

O‘zbek xalq musiqa merosi boy va ulkan ummon kabidir. Musiqiy merosimizdan joy olgan musiqa namunalari asrlar osha ijro etilib, avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib kelgan. Xalqimizning bu boy va murakkab musiqiy merosi azaldan ustoz san’atkorlar tomonidan og‘zaki uslubda yaratilib, ustozdan shogirdga o‘tib, an’ana tarzda ijro etilib bizgacha yetib kelgan.¹

Xalq musiqa san’ati boy va serqirra deyildi. Albatta, xalqona urf-odatlariga asoslangan musiqiy madaniyat o‘z-o‘zidan turmush tarziga aylangan va muttasil davom etib kelgan. Davlat miqyosida ma’naviyat darajasi va uning ravnaqi ijodiyot mahsuli bilan o‘lchanadi. Qayerda ijodiyot kerakli me’yorda mavjud ekan, bu jarayon milliy an’analarga asoslanar ekan, u yerda hayotimizga xos va zamonaga mos rivoj bor. Davlatimiz tomonidan bu borada farmon va qarorlar qabul qilindi va o‘z samarasini berib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida - “Ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. O‘zbek maqom san’ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining “oltin fondi”ni yaratish;

xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish bo‘yicha oldimizda ko‘ndalang turgan muhim vazifalarni bajarishga hammamiz mas’ulmiz”, - deyiladi.²

Biz hayotimizni kuy va qo‘shiqsiz tasavvur qila olmaymiz. Naql qilinishicha, hatto inson jismiga jon ham musiqa vositasida kirgan ekan. Shuning uchun yaxshi

¹ library.ziyounet.uz/ru/book/download/89141. МУМТОЗ МУСИҚАМИЗ ХУСУСИДА.

М.Обидова. НамДУ, илмий ходими

² Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. 2017 йил 17 ноябрь.

kunimizda ham, yomon kunimizda ham – beshikdan qabrga qadar umrimiz davomida bizga qo‘shiqlar hamroh.

Shuning uchun ham ota-bobolarimiz san’atni, adabiyotni hech qachon ilmu hunardan ajratishmagan. Beqiyos tafakkur qudrati, betakror qalami sehri bilan dunyo ilmu adab ahlining e’tirofi va hayratiga sazovor bo‘lgan buyuk olimu adiblarimiz ham aksar musiqa bilimdonlari, zabardast bastakoru mohir sozanda, ba’zida hatto sohir xonanda ham bo‘lishgan³.

Mumtoz musiqamiz amaliyoti va ravnaqiga nazar solar ekanmiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlodi ekanligimizni ko‘ramiz. Yosh avlod vakillari o‘tmishda yaratilgan merosni o‘qib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib o‘zlashtirsalar, zamonaga munosib san’atkor bo‘lib yetishishlari mumkin.

Aytish joizki, o‘zbek mumtoz musiqa san’ati og‘zaki san’atdir. Musiqiy ohangda mavjud har qanday harakat, ya’ni jilo, joziba, g‘oya, mazmun qochirim va bezaklar tinglash orqali idrok etilib, o‘zlashtiriladi. Ularning ravnaqi yo‘lida qilingan har qanday harakat ijodiyot mahsuli demakdir. Shu bois, musiqa azal-azaldan og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Buni bizda «ustoz-shogird» an’anasi deb ardoqlashadi. Bunga e’tibor berilgandan so‘ng, ko‘p vaqt o‘tmay maqomlarimiz asrlar osha yashab kelayotgan ekan, ularni kelajak avlodlarga qoldirish, umrboqiy qilish uchun katta mehnat va fidokorlik talab qilinadi. Buning uchun musiqiy merosimizni ijrochilik an’analarini yaxshi o‘zlashtirgan yuqori malakali mutaxassislar, ijrochilarni yetishtirish davrning asosiy vazifalaridan biridir. Odatda, mumtoz ashulalarni, katta ashula, maqomlarni ijro etish xonandalardan juda katta iste’dod va mahorat, keng diapozonga ega bo‘lgan ovoz hamda keng nafas yo‘liga ega bo‘lishni talab qiladi. O‘zbek an’anaviy ijrochiligidagi yana bir muhim omil - bu uning tabiiyligini ifoda eta bilish va musiqiy asarni milliy bezaklar bilan ijro etishidadir.

³.Қодиров.Д.”Анъанавий хонандалик” Ўқув қўлланмаси. 2018 .

I-BOB. An'anaviy xonandalik ijrochilik maktabi

O'zbek qo'shiqchilik san'atining tarixi juda ko'hna bo'lib, u insoniyatning shakllanish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek an'anaviy xonandalik san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishini uning dastlabki bosqichlarida, millatning turli davrlaridagi tarixida ko'rish mumkin. Qo'shiqchilik san'ati insonning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan ijtimoiy fikri, g'oyalari, dunyoqarashi mahsulidir.

Qadimgi qo'shiqchilik san'ati janrlari va shakllari rang-barang bo'lib, ular ijtimoiy turmush, xalq an'analari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqchilik madaniyati asosan madhiyalar, allalar, yig'i, harbiy chaqiriqlar, ibodat qo'shiqlari, tantanalar, bayramdagi qo'shiqlar tarzida namoyon bo'lgan.

Qo'shiqchilik eng qadimgi davrlarda xalq san'ati shaklida paydo bo'lib, keyinchalik sinfiy jamiyatga o'tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli ajralib chiqib boshlagan. O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi dastlaki ming yillikning birinchi yarmida, ya'ni ilk temir davrida ibtidoiy jamoa tuzumi o'zining so'nggi bosqichini o'tab, uning o'rniga sinfiy jamiyat yuzaga kelganligi nazarda tutilsa, unda professional qo'shiqchilik (an'anaviy xonandalik) san'atining ilk asoslari bundan ikki yarim ming yil avval shakllana boshlagan, deyish mumkin, - deb yozgan edi H.Hamidov.⁴

Qadimgi kasbiy qo'shiqchilik san'ati hozirgi paytdagi ayni shunday san'at turidan ancha farq qilsa-da, hukmron doiralar qarorgohlari va saroylarida bu san'at turi bilan maxsus shug'ullanuvchi kishilarning paydo bo'lishi bizni professional qo'shiqchilik san'ati to'g'risida yuqoridagi xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Sinfiy jamiyat sharoitidan an'anaviy qo'shiqchilik san'ati rivojida bir-biri bilan o'zaro bog'liq quyidagi uchta asosiy yo'nalish paydo bo'ldi.

- Qo'shiqchilikka asoslangan xalq musiqasi;
- Yozuvsiz an'anaviy kasbiy musiqasi;

⁴ X.Hamidov. Ўзбек анъанавий қўшиқчилиқ маданияти тарихи. Тошкент. Ўқитувчи. 1996 йил. 9 бет.

- Qo‘shiqchilik birinchidan professionalizmning paydo bo‘lishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur sohaning nazariy-ilmiy jihatdan rivoj topishi uchun dastlabki poydevor rolini o‘ynadi.

IX asrdan boshlab O‘rta Osiyo hududida professional qo‘shiqchilik san’atining nazariy-uslubiy va amaliy masalalarini ishlab chiqish kuchaydi. Tarixiy qo‘lyozmalar shundan dalolat beradiki, Uyg‘onish davrida o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining nazariy asoslari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibni Zayla, Safiuddin Urmaviy, Mahmud ash-Sheroziy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy kabi qator olimlar tadqiqotlarida yanada takomillashtirildi.

An‘anaviy xonandalik ijrochilik maktabi mumtoz ashula, katta ashula va maqom ashulachilik maktablarini o‘z ichiga olgan.

1. Mumtoz ashula

Lirik karakteridagi rivojlangan kuy shakliga ega bo‘lgan yirik aytim-ashula yo‘li. Ashula mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo‘lib, o‘zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og‘ir karakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz (Lutfiy, Fizuliy, Alisher Navoiy, Jomiy, Haziniy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Ogahiy, Munis va b.) va o‘zbek (Chustiy, Sobir Abdulla, Po‘lat Mo‘min, Erkin Vohidov, Kamtar, Normurod Narzullaev va b.) shoirlarning aruz vaznida yozilgan g‘azal, ruboiy, muhammaslar ashula janrida keng qo‘llanib kelingan. Falsafiy ma’noga ega bo‘lgan, shuningdek, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik hamda ayrim nasihatgo‘y mazmun ko‘proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so‘z va kuy uzviy bog‘liq bo‘lib, bu holat asarning butun mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bog‘liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavq-shavq uyg‘otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi⁵

Ashula janri sifatida folklor va mumtoz musiqa ijodiyoti keng tarqalgan, ammo she‘r matnlari (folklor namunalarida xalq so‘zlari), kuy rivoji va ijro uslublari bilan ajralib turadi, masalan, "Tanovar" – folklor yo‘nalishida "Qora soch", "Sumbula", "Endi sendek"; mumtoz ashula namunalari "Adolat tanovari", "Yovvoyi tanovar" va b. (bular bir ohang asosida shakllangan).

⁵ ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/.../332-mumtoz-ashula-yalla

Mumtoz ashulalar musiqiy matnning rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi, kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Ularning rivojlanish jarayoni daromadidan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng o‘rin olgan, uning lokal variantlari mavjud. Jumladan, Buxoroda xalq ashula va muhammas, Xorazmda suvora va naqsh, Farg‘ona vodiysida ashula yo‘llari, katta ashula, yovvoyi ashula deb yuritiladi. Diniy va pand-nasihat mavzuidagi (Mashrab, Ahmad Yassaviy, Ogahiy, Haziniy, Furqat, Huvaydo, Maxtumquli) mumtoz ashula yo‘llari – munojot, na‘t, qalandar, xonaqoi, hamd, manzuma deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo‘lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi.

O‘zbek bastakorlari ham mumtoz ashula janri asosida asarlar yaratganlar. Bu ashulalar yakkanavoz ijrosida, cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilib kelingan. "Tanovar", "Munojot", "Girya", "Adashkanman", "Yolg‘iz", "Qomating", "Qurd", "Ol xabar" kabi mumtoz yo‘lidagi ashulalar, "Kuygay" (Yu.Rajabiy), "Sensan sevarim" (O.Hotamov), "Naylayin" (J.Sultonov), "Ey, chehrasi tobonim" (F.Sodiqov), "Diyorimsan" (K.Jabborov), "Bir ishva bilan" (M.Murtazoyev), "Guluzorim" va "Qurbon o‘lam" (A.Abdurasulov), "Qachon bo‘lgay" (M.Mirzayev) va boshqa bastakorlarning ashulalari xonanda (professional va havaskor)lar repertuaridan mustahkam o‘rin olgan. Yirik namoyandalar – K.Otaniyozov, J.Sultonov, M.Uzoqov, F.Mamadaliyev, R.Mamadaliyev, O.Xudoyshukurov, H.Boltayev, B.Dovidova, M.Tojiboyev, M.Yo‘lchiyeva va boshqalar.

O‘zbek ijrochilik amaliyotida ashula turkumlari ham mavjud, jumladan, "Tanovar I–V", "Qalandar I–V", "Eshvoy-Eshvoy kurd-Eshvoy turkman", "Qalandari-Samandari", "Dilxiroj-Sinaxiroj" va boshqalar.

2. Katta ashula

Patnusaki (patnis) ashula — Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan o‘zbek an‘anaviy ashula yo‘li. Odatda, 2-5 hamnafas ashulachi (hofiz) tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz (qo‘llariga patnis, likobcha ushlagan holda) aytiladi.⁶

Ko‘pincha yuqori pardalarda va keng nafasda ijro etilib, o‘ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi.

⁶ ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/elements.

Katta ashula deb nomlanishiga sabab – bu ashulalar ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o'ziga xos katta mavzu va ijro uslubiga egaligidir. Uni xalq orasida “patnis ashula” yoki “patnusaki ashula” deb ikkinchi nom bilan ham atashgan. Ashulani hofizlar qo'llariga patnis yoki likopcha (tarelka) ushlab, ijro jarayonida ovoz yo'nalishini o'zgartirishga hamda o'z va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to'ldirib, qochirimlar qilishga yordam bergan. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etiladi. Bundan tashqari, katta yig'inlarda, to'y tomoshalarda, mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga “katta ashula” nomi berilgan bo'lishi mumkin. Katta ashula ijrochisidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga e'tibor qilishni, she'rning ma'nosini va so'zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi.

Katta ashula janrining asosiy hususiyatlari:

Bir vohada shakllanib, rivoj olishi (Farg'ona vodiysida);

1. O'ziga xos ijro uslubi – ikki (yoki uch-besh) xonandalar tomonidan cholg'u jo'rligisiz, galma-gal aytilishi;
2. Badihago'ylik (har bir xonanda ijrosida);
3. So'z va kuy mutanosibligi;
4. Professionallik mahorat va qobiliyat mavjudligi (ijrochi professionallik talablariga javob berishi lozim);
5. So'z matnida noshe'riy bo'g'in va iboralardan (yor, voey, jon, adomaney) keng foydalanish (ayniqsa, avj qismida);
6. Ta'sirchanlik.
7. Hamnafaslik (ovoz diapazoni, kuchli, balandligi, tembrli, uslubi, xonandalarda bir-biriga mos tushishi zarur);
8. Erkin talqin etish;

9. Ijro an'analariga bo'ysunish va rioya qilish.

Katta ashula o'rta asrlarda marosim va mehnat qo'shiq-aytimlari negizida, mumtoz she'riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz g'azallarni an'anaviy o'qish asosida yuzaga kelib rivojlanadi. Uning o'tmishidagi namunalarida ishqiy-lirik g'azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvur ruhidagi she'rlar ham kuylangan. Keyinchalik esa Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she'rlari bilan aytila boshlangan. XX asrda zamonaviy o'zbek shoir (Xabibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, O'tkir Rashid, Erkin Vohidov va boshqalar) she'rlari ham qo'llangan. Katta ashula taraqqiyotida masnaviy, ruboiy, muhammas, musaddas kabi poetik janrlar ham muhim rol o'ynaydi. Hususan, bunga misol tariqasida Miskinning "Ey, dilbari jonim" she'rini keltirish mumkin:

Ey, dilbari jononim, ko'p nozu itob etma,

Yuz jabri jafo birla holimni harob etma.

Mastona ko'zing birlan qoshing qilichin tortib,

Bir-biriga himo aylab, qatlimga xitob etma.

Aruz vaznida yozilgan bu g'azal tinglovchilarga zavqu-shavq, turfa ruhiy kechinmalar uyg'otib, poetik asarlarning katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Musiqiylik-she'riyatning eng asosiy fazilatlaridan, deb bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham katta ashula yoki ashula deyilganida, halqimiz nazarida musiqa asarlari namoyon bo'ladi, vaholanki, musiqa asarlarining o'zi ham mustaqil mazmunga ega va inson qalbining eng nozik his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan san'at turlaridandir.

Gʻazallar xalqimizga mantiqan yetib borishida, ular bilan aytiladigan ashulalarning, ayniqsa, katta ashulaning xizmati juda katta boʻlgan (chunki, katta ashulada soʻz kuy bilan bir uslubda “nafas” oladi. Ularda sheʼr va kuy bir-biriga shu qadar uygʻunlashib, bir-biriga singib ketadiki, kuyning oʻzini alohida eshitganida sheʼrni ham tinglayotganidek boʻlamiz.

Katta ashula mazmun jihatidan quyidagicha boʻlinadi:

1. Falsafiy;
2. Ishqiy-lirik;
3. Didaktik;
4. Diniy;
5. Zamonaviy.

Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qoʻshiqlari, marsiya, navha, ayolgʻu qoʻshiqlari hamda aruz vaznidagi gʻazallarning qadimiy oʻqilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Katta ashula, odatda, katta yigʻin, sayil va toʻy – tomoshalarda aytilgan. Uning oʻtmishdagi namunalarida lirik va nasihatombuz gʻazallar bilan bir qatorda diniy, tasavvuf yoʻnalishidagi sheʼrlar ham kuylangan. Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning gʻazallari katta ashula janridan alohida oʻrin olgan. Xalq orasida "Doʻstlar" (Navoiy), "Koʻp erdi", "Yolgʻiz",

Ishqing oʻtidin dilbar hardamda kuyay derman ,
Qonim bilan ey janon olamni oʻyay derman.
Yuzing bilan qoshingdin oʻzgaga nazar solsam,

Xanjar olibon qo'lga ko'zimni o'yay derman.

Mujgon o'qidin dilbar qonimni to'kar bo'lsang,

Ul shami jamolingga parvona bo'lay derman .

Mashrab seni deb dilbar kechdi ikki olamdin,

Rahm aylagin ey janon birgina ko'ray derman.

"Adashganman" (Muqimiy), "Oh kim, rahm aylamas" (Furqat), "Bir kelsun", "Ey, dilbari jononim" (Miskin) kabi Katta ashulalar keng tarqalgan. Habibiy, Chustiy, Kamtar, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po'lat, Vosit Sa'dulla, Nasimiy, Erkin Vohidov, O'tkir Rashid va boshqalarning she'rlari ham katta ashulada sevib ijro etiladi.

Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar bir biriga mukammal va uzviy bog'lanishini ta'minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qo'llanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi an'anaviy "ustoz-shogird" maktabini o'tgan, she'riyat qonunlari va ijrochilik an'alariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega bo'lishi lozim. Hofizlar, odatda, she'r bandidagi boshlang'ich misralarning har birini galma-gal, so'nggi misralarni jo'r bo'lib ijro etadilar.

XX-asrning 2-yarmida Katta ashulaning yangi ashula-cholg'u yo'llari, yakkaxon hofizga mo'ljallangan turlari yuzaga keldi. Mazkur namunalarda cholg'u ansambli hamnafas hofiz vazifasini bajargan, ijroda erkin uslub saqlanib qolgan.

Katta ashulaning bu uslubi Jo'raxon Sultonov tomonidan yaratilgan ("Ey dilbari jononim", "Ohkim", "Topmadim", "Guluzorim qani", "Mehnat axli", "O'zbekiston" va boshqalar). Ayrim maqom sho'balari ("Bayot", "Chorgoh", "Ush-shoq") ham Katta ashula ("Yovvoyi maqom") uslubida aytilgan (masalan, "Yovvo-

yi Ushshoq", "Patnusaki Chorgoh", "Likobi Bayot" va boshqalar). Mohir sozandalar Katta ashulaning cholg'u (nay, surnay, g'ijjak) yo'llarini yaratdilar. Rivojlanish mobaynida Katta ashula ijrochilik (Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent, Namangan, Andijon) maktablari shakllangan. Erkaqori Karimov, Sherqo'zi Boyqo'ziev, Haydarali Hikmatov, Meliqo'zi Yusupov, O'tamboy Sarimsoqov, Turdiali Ergashev, Otamirza Abdurahmonov (Qo'qon), Mamatbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Boltaboy Rajabov, Ibrohim Isokov, Musajon Orifjonov (Marg'ilon), Orif Alimahsumov, Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Akbar Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov (Toshkent), Fattohxon Mamadaliev, Odiljon Yusupov, Jo'raxon Yusupov (Andijon), Hamroqulqori To'raqulov (Beshariq), Rasulqori Mamadaliev (Buvayda), Solijon Hoshimov (Quvasoy) va boshqalar Katta ashula ijrochiligida shuhrat qozongan. Halima Nosirova, Munojot Yo'lchieva, Ismoil va Isroil Vahobovlar, Mahmud Tojiboev, Mahmud Yo'ldoshevlar ham Katta ashulani mahorat bilan ijro etmoqdalar. 1984 yildan O'zbekistonda katta ashulachilarning ko'rik tanlovlari (Marg'ilon- 1984; Toshkent- 1987; Ko'qon- 1991; Shahrisabz- 1994) o'tkazilgan.

Katta ashula ijrochilik yo'llari an'anaviy mahorat maktablari (Baliqchi, Buvayda) va musiqa o'quv yurtlari (Farg'ona san'at bilim yurti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi)da o'zlashtirib kelinmoqda. 2001- yil Andijonda 1- Respublika professional katta ashula ijrochilari tanlovi va ilmiy-amaliy (Toshkent, Andijon) konferensiyalari o'tkazildi.

Katta ashula qadimiy musiqa janrlaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi hozirgi davrda mutaxassislar o'rtasida ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda⁷.

Ba'zi musiqashunoslar bu janrni "diniy mazmundagi so'zlar bilan aytiladigan musiqalarga bog'liq" desalar, boshqalari "katta ashulachilik she'rlari baland

⁷ Бекназар Дўстмуродов. Катта ашула-катта санъат. Гулистон журнали. 2011 йил.4 сон. 21-23 бетлар.

ovozda, yuqori pardada kuylash orqali vujudga kelgan” degan fikrni bildiradilar.



B.Do'stmurodov, A.Ibragimov

Mutaxassislar orasida ushbu san'atni "Qadimda musiqiy sozlarni sotib olishga qurbi yetmagan baland ovoqli xonandalarning san'ati" tarzida talqin etuvchilar ham yo'q emas.

O'zbekiston xalq xofizlari

Ayrim san'atkor yoshlarimiz katta ashulani mumtoz g'azaliyot biror-bir kuyga tartibsiz ravishda solinib, usulsiz ravishda, badihali, soz jo'rligisiz kuylanadigan shunchaki ohang, deb nomlashga urinishayapti. Xullas, ko'pchilik bu qorishiqni katta ashula deb qabul qilmoqdalar.

Aslida esa, katta ashula o'zbek mumtoz musiqasining ma'lum mezon va qonuniyatlariga asoslangan, asrlar osha shakllanib, ustoz xonandalar tomonidan asrab-avaylab rivojlantirib kelinayotgan mustaqil va yetuk janrlardan biridir. Katta ashula Farg'ona vodiysida shakllangan va ashula ijrochiligining alohida yo'nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, katta ashula ijro amaliyotida charxlanib, o'z davrining mohir ashula ijrochiligi san'atiga xos bo'lgan bir qator unsurlarni mukammal tarzda o'zida mujassam etgan an'anaviy maktabdir. Zotan, uning ijrochilik mezonlari xonandalardan alohida iste'dodni ovoz, idrok, zukkolik, badihaviylik va mahoratni talab etadi. Bu nafis san'atni mukammal egallagan ustozlardan o'rganish, shunga munosib targ'ib etish va shu yo'lda yangi namunalarni ijod etish juda ahamiyatlidir. Eng muhimi, zamonaviy ijrochilarni tarbiyalash, katta ashulachilarning yangi avlodini voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir.



Ustoz va shogirdlar-O'zbekiston xalq xofizlari
O'.Saidjonov,S.Niyozovlar bilan.

Katta ashula san'ati ma'lum tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan, xalqning ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy ehtiyojlari asosida yashab, hayotda o'z izini qoldirib kelayotgan betakror aytimlar sirasiga mansub.

Ma'lumki, katta ashulalar ikki uslubda ijod etilib kelingan. Birinchisi, maqom pardalariga mos va uning muayyan qoidalari asosida yuzaga kelgan akatta ashulalar.

Ikkinchisi, bastakorlar tomonidan turli uslublarga moslashtirib yaratilgan katta ashulalardir.



B.Do'stmurodov ustazodalar – Ahrorxon va Mahamatxon Xotamovlar

Darhaqiqat, katta ashula janri musiqiy merosimiz namunalarida ichida alohida o'rin tutadi. Bunday deyishimizga sabab, janr hususiyatidan kelib chiqib, bu xonandalik san'ati bilan bog'liq va musiqiy sozlarsiz ijro qilinadigan mukammal janrdir. Katta ashulachilar musiqiy soz o'rniga qo'llariga likobchalarni ushlab aytganlari uchun, amaliyotda "likobiy ashula" ham deyiladi.

Amaliyot davomida, ashula nomiga "yovvoyi" atamasini qo'yib aytish rasm bo'lgan. Buning sababi, ijroda doira yoki boshqa bir musiqiy cholg'siuning ishtirok

etmasligidir. Shunga qaramay, xonandalar muayyan usulni ijro davomida saqlab turadilar. Masalan, “Yovvoy Chorgoh” musiqiy namunasini olaylik. (J. Sultonov musiqasi. Xalq so‘zi.)

Xiro dilimni ravshani siz ro‘shno keling,
Aftodalarni so‘rgali bir oshino keling.
Xolu tabaxning qoshiga mushkul kusho keling,
G‘urbat kashida qo‘llaro ey dilkusho keling.
Vaxti ayodatim so‘rab kulbam kusho keling,

Sabru qarorim qolmadi yo‘lingda ko‘z tutub.
Umrim ichinda doyimo ishqing bilan o‘tib,
Tig‘i sitamlaring saning jonimga qasd etib,
G‘urbatkashida qo‘llar dilkusho keling,
Vaxti ayodatim so‘rab kulbam kusho keling.

Man tashnaman visolingga ey yor qaydasan,
Ko‘ngildagi g‘amingni sen ag‘yorga aytasan.
O‘tlug‘ sharobini berib kuydursa qaytasan,
G‘urbatkashida qo‘llar ey dilkusho keling,
Vaxti ayodatim so‘rab kulbam kusho keling.



B. Do‘stmurodov va shogirdi N. Xolboyev

“Yovvoyi” so‘zi asar usuliga, ya’ni uning sozsiz ijro etilishiga nisbat bersa, “Chorgoh” atamasi esa maqomot safidagi ma’lum pardalar majmuasini anglatadi. Aniq tushunchaga ega bo‘lish uchun bu asarni chuqurroq tahlil qilib ko‘ramiz. Katta ashula uslubida ijro etiladigan “Yovvoy Chorgoh” uch xonanda tomonidan ijro etib kelingan. (vaziyat taqozo

etganda, ikki, hattoki to‘rt ijrochi tomonidan ham ijro etilishi mumkin). Dastlab daromad va miyonhatida aniq usul likoblarida bildirilib, uchchala xonanda ijroni birga boshlaydilar.

“Yovvoyi Chorgoh” katta ashulasi tarkiban usulga asoslangan va asoslanmagan ikki tarkibdan tashkil topgan. Bu bo‘laklar ashulaning ichki qoidalari zaminiga xos qilib ijro etiladi.

“Yovvoyi Chorgoh” o‘ziga xos daromad bilan boshlanadi va bu daromad ashulaning falsafiy mag‘zi hisoblanadi. Shu bois daromad o‘ta bosiqliq bilan va katta salobat bilan ijro etiladi. Asarning o‘rta avj va dunasr qismida ovozi nisbatan pastroq bo‘lgan xonanda bir xatini xat yakuniga yetmay turib uning oxirgi harflaridan ovozi nisbatan yuqoriroq bo‘lgan xonanda ikkinchi xatni ulab ketadi. Xuddi shu ko‘rinishda uchinchi xonanda ikkinchi xonandaning so‘zlarini ulab, keyingi xatni ijro qiladi va to‘rtinchi xatdan boshlab uchchala xonanda yana birgalikda davom ettiradilar.

Asar ijrosi avjga kelganda yana usulsiz qismi boshlanadi. Endi ovozi eng baland bo‘lgan xonanda ijroni davom ettiradi. U yuqori pardalarni chiroyli qochilmalar bilan olib kelib, ovozi nisbatan pastroq bo‘lgan xonandaga ijroni topshiradi. U ham, o‘z navbatida, birinchi xonandaning ovozini keyingi xatga ulaydi. Uchinchi xonanda ham shu tariqa davom ettiradi va yana birgalikdagi ijro usuli bilan furovard qismi yakunlanadi.

“Yovvoyi Chorgoh”ning nafaqat ohanglari va pardalari, balki musiqiy yo‘llari ham aynan maqomlardan olingan. Asarning maqomlardagi Chorgohlardan farqi faqatgina ijro uslubida namoyon bo‘ladi. Chorgoh pardalari majmuasining musiqiy sozlarsiz ijro turi aynan shunday bo‘lishi kerak. Keyingi davrlarda katta ashulani cholg‘u asboblari bilan jo‘r bo‘lib aytish ham rasm bo‘la boshladi. Lekin cholg‘ular atigi jo‘rnavozlik hususiyatini kasb etadi, xolos. Hozirgi kunga qadar katta ashula janrining qayerda va qachon kelib chiqqani haqida aniq dalillar topilgan emas. Mutaxassislar va xonandalarning turli manbalardagi katta ashula

haqidagi fikrlari musiqashunos olim Rustam Abdullayevning “Katta ashula janri va ijrochilari” deb nomlangan nozodlik dissertatsiyasida keltirilgan. Jumladan, Sharq musiqashunosi V.M.Belyaev “katta “ deganda asarning soʻzlari ochiq va maʼnolari kattaligiga urgʻu beradi, mashhur musiqa folklorchisi va bastakor V.A.Uspenskiy va Qoʻqonlik hofizlar esa katta ashulaning, “Samo” maʼnosiga yaqin boʻlib, shunday musiqalardan kelib chiqqanini taʼkidlaydilar. Mashhur katta ashula ijrochilaridan Akbarali Boboyev, Mamadali Yusupov, Sobirjon Azizov, Saidali Xoshimovlar bu sanʼatni katta xonalarda hamda ochiq havoda musiqiy sozlarsiz ijro etilgani uchun katta ashula deyishgan. Maqsud Hamidov, Inomjon Isroilov, Odiljon Yusupov, Mamadaziz Umarov, Erkin Hamidov, Orifxoji Alimaxsumov va boshqa xonandalar bu janrning ijrochi ovozlari kuchli hamda katta boʻlishi lozimligi, shu yoʻsinda har bir eshituvchini maxliyo qilishi bilan ushbu nom berilgan, degan fikrni bildirganlar. Xonandalar Muxsinjon Mirzaxoʻjayev, Temurbek Baratovlarning nazarida esa, katta ashula janirining sheʼrlari qadimda juda chuqur purmaʼno, diniy boʻlganligi, avjlari ham juda yuqoridaligi sababli unga “katta” atamasi qoʻshilgan. Bu janrga nisbatan yana “patnis ashula”, ”patnisaki ashula” nomlari ham qoʻllaniladi. Bunday nomlanish, aslida, xonandalar likobcha yoki temirli patnislarni qoʻllarida ushlab aytganlari sababli yuzaga kelgan. Oʻzbek musiqasi tadqiqotchilari va katta ashula ijrochilari bu janrning barcha sifatlarini hisobga olgan holda, yaʼni musiqiy yoʻlning uzunligi, sheʼriy matnning maʼnodorligi va boshqa xislatlari uning nomlanishiga mos ekanligini taʼkidlaydilar.

Endi esa katta ashulalardan biri boʻlgan “Yovvoy Ushshoq” asarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Asar ijrosi davomida doira yoki boshqa biron-bir musiqiy cholgʻulardan foydalanilmaydi, shuning uchun uning nomlanishiga “yovvoyi” atamasi qoʻshilgan. Katta ashulalarda garchi doira sozi ishtirok etmasa-da, xonandalar usulni, yaʼni ritmni ijro davomida saqlab turishadi.

“Yovvoyi Ushshoq”ning daromad qismi ikki xonandaning navbatma-navbat ijrosi bilan” boshlanadi. Miyonxat va dunasr qismlari ham ikki xonandaning bir-birini to‘ldiruvchi g‘azal baytlari bilan davom ettiriladi.

Bu ko‘rinish uch marotaba takrorlanadi va so‘nggi takrorlanishi eng yuqori avji bilan ijro etiladi. Asar furovard, ya’ni yakunlovchi qism bilan tugallanadi. Ma’lumki, “Ushshoq” atamasi “Oshiq” so‘zining ko‘plikdagi ma’nosidir. Bu ruhiyat asarning ijro jarayonida muttasil davom etib turadi.

Katta ashulaning kelib chiqish tarixini mutaxassislar turlicha taxmin qiladilar. Manbalarning birida: “Katta ashulalarning matnlari faqat aruz vaznidadir. Shuning uchun bu janrning kelib chiqishi arablar istilosidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Chunki aruz vazni bizga arablardan kirib kelgan. Undan oldin faqat barmoq vaznidagi she’rlar bo‘lgan”, deb yozilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Nima uchun katta ashula faqatgina vodiy xonandalik maktablarida mavjud? Axir qadimda Samarqand, Buxoro va Xorazmda musiqa san’ati rivojlanganroq edi-ku? Ayniqsa, Buxorodagi buyuk madrasa va honaqohlardagi musiqiy ta’limot va ilm peshvolari o‘sha davrda yagona sanalar edi-ku? Shuni aytishimiz mumkinki, katta ashula janrga o‘xshash, ya’ni cholg‘usiz ijro etiladigan janrlar mamlakatimizning barcha vohalarida ham mavjud. Misol uchun, Xorazm dostonlaridagi rechitativ, ya’ni nutq bilan aytiluvchi qismi Buxoro mavrigi va Buxorcha janrlarining boshlanish, doira usulisiz qimsi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaridagi mavjud aytim, ya’ni eslash, yod olish kabi kuylash janrlari mavjud. Ammo Toshkent – Farg‘ona katta ashula janrlari bu borada nisbatan mukammal va o‘ziga xosdir. O‘zbek milliy musiqasi benihoya boy va go‘zaldir. Uning nodir janrlaridan biri bo‘lgan katta ashulachilik san’ati o‘ziga xos tarixga ega.

Katta ashula janrining kelib chiqishi haqida mutaxassislar yana boshqa turli dalillarni aytadilar. Manbalardan birida yozilishicha, katta ashula ikki va undan ortiq xonandalarning musobaqasi orqali shakllangan. Ko‘rik-tanlovning o‘ziga xos shartlari bo‘lgan: birinchidan, katta ashula ijrochilari boshlaydigan pardalarini va o‘z ovoz ko‘lamlarini aniq bilishlari lozim, aks holda, avj qismiga yeta olmay,

qiynalib qolishlari mumkin. Bu xonandalardan eshitish qobiliyatining o'tkirligini talab etadi. Ikkinchidan, aniq doira usulisiz ashula aytish xonandalar uchun badihago'ylikda va ovozlar go'zalligini namoyon qilishda yanada erkinlik yaratib beradi. Bu xonandalardan kutilmagan nola va qochirimlar orqali yurak dardini ko'rsatib bera olishni talab etadi. Uchinchidan, xonandalar ashulaning so'zlarini esdan chiqarib qo'ysalar, boshqa so'zlarni aytish va yamlash orqali balandroq chalib, ovozlarini pastroq chiqaradilar. To'g'ri ma'noda, sozning orqasiga berkinadilar. Katta ashulada esa buning hech iloji yo'q. Demak, so'zlarni yodda saqlash ham tanlovning muhim jihatlaridan biridir. Bundan tashqari, aruz vazni tuzilmasinmi, ya'ni ritorikasini yuqori ovozda ma'lum qonuniyatlar bilan to'la-to'kis ijro etish ham asosiy vazifalardan biri bo'lgan. Uning musiqiy pardalari o'zgarishi maqomlar pardalariga moslanishi keyinchalik paydo bo'lgan omillardandir.

Bastakorlar tomonidan yaratilgan katta ashulalarda she'rning ma'no-mohiyatiga mos ravishda pardalar va musiqiy yo'l tanlanadi. Ijrochilar esa ba'zan birgalikda yoki yakka holda ijro etishi ham mumkin. Katta ashulalarning ichida shundaylari borki, bu asarlarni ikki xonanda ijro etmasa bo'lmaydi, chunki ularning so'zlari va musiqiy matni bir ijrochi uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan: Jo'rahon Sultonov ijrosidagi "Ohkim", "Ko'kardi chaman", "Ey sanam", "Yodimga tushdi", Ma'murjon Uzoqov ijrosidagi "Yolg'iz", "Dog'man", "Ko'p nozu itob etma", "Yor istab" va bu ashulalar ketidan ularga mos pardali ashulalarni musiqiy sozlar jo'rligida ham ijro etganlar. Orifxoji Alimahsumov ijrosida "Ko'p erdi", "O'xsharsiz", "Ey, dilbari jononim", "Fattohxon Mamadaliyev ijrosida "Topmadim", "O'zbekistonim" kabi katta ashulalarni esa yakka holda ijro qilsa bo'ladi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarida ovoz orqali ijro etiladigan janrlar juda ko'p. Ayni paytlarda ko'p uchramaydigan folklordagi qo'g'irchoqbozlik shunday janr. Yoki dostonchilikda o'sha davrlarda doira bilan va umuman sozsiz ijro etiladigan dostonlar ham mavjud bo'lgan. Shuningdek, mumtoz shoirlarning nodir

gʻazallarini ohanglar bilan oʻqish anʼanasi hozirgacha saqlanib kelgan. Qoʻshiq, lapar, yalla, aytishuv janrlari, uch vohta maqomining aytim yoʻllari saqlanib qoldi va ijodiy izlanishlarga sabab boʻldi. Mutaxassislarining aytishicha katta ashulalar faqat aruz vaznidagi sheʼrlar bilan ijro etiladi.

Aruz vazni soʻz ritorikasi katta ashula ijrosida muhim ahamiyatga ega. Ammo shunday katta ashulalar ham borki, ularning sheʼriy vaznlari aruz emas. Yaʼni barmoq vazni yoki boshqacha aytganda, terma shaklida yozilgan sheʼrlar asosida ham ijro etilgan. Bu holat esa, katta ashulalar faqatgina aruz vaznida aytiladi, degan fikrni inkor etadi. Bizga sheʼriyatning aruz vazni kirib kelishdan oldin barmoq va shunga oʻxshash, nisbatan sodda sheʼriy vaznlar rasm boʻlgan. Albatta, bunday vazndagi sheʼrlarga ham katta ashulalar bogʻlangan. Afsuski, bu koʻrinishdagi katta ashulalar hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Barmoq vaznida ijro etilgan katta ashulalarni tiklash maqsadida yosh xonandalar izlanishlar olib bormoqdalar.

Katta ashula janri eng noyob sanʼat turlaridan biri sifatida xalqaro ”YUNESKO” tashkiloti tomonidan tan olingan. Bunga katta ashulaning ham ”maqom” singari sanʼatning murakkab turi ekanligi hamda dunyoning boshqa hech qaysi davlatida yoʻqligi sabab boʻldi. Chindan ham katta ashula janrining ijrosi qiyin va murakkab boʻlganligi uchun har qanday xonanda ham uni ijro eta olmaydi.

3. Maqom ijrochilik maktabi⁸

Oʻzbek mumtoz musiqasida maqom janri yetakchi oʻrinni egallab kelgan. Maqomlar juda qadim zamonlarda Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari musiqa madaniyatida mavjud boʻlgan, yetuk sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va IX-X asrlarda rivojlanib, yangi vositalar bilan boyidi. **“Maqom”** soʻzi arabcha soʻzdan olingan boʻlib, **“oʻrin”**, **“joy”**,

⁸ <http://www.maqom.uz/maqom-tarixi/#>

“bosqich”, “daraja” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu soʻz adabiyot, tasavvuf ilmi va boshqa sohalarda ham keng isteʼmol etilgan boʻlib, maxsus ibora sifatida aynan musiqa sanʼatida eng koʻp va xilma-xil maʼnolarda ishlatiladi. Musiqada **“maqom”** deganda kuy tovush qatorlarining alohida musiqa asari bohqichlari – **parda** tizimlari (lad birliklari) **lad tizimlari**, alohida **musiqa asari** (cholgʻu yoki ashula); **musiqa turi** (janri) – cholgʻu va ashula asarlarini birlashtiruvchi katta-kichik **turkumli janr** deb tushunish kerak. Turli xalqlar madaniyatida **“maqom”** iborali asar va turkumlar mavjud: **maqom** (oʻzbek va tojiklarda), **mugʻom** (ozarbayjon), **muqom** (uygʻurlar), **dastgoh** (eron), **noʻba** (magʻrib) kabi iboralarning variantlari keng tarqalgan.

Maqom yirik turkum va asar janri sifatida mumtoz musiqa toifasiga kiradi. Musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan u oʻzining badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari, lad va usul tizimlari hamda ilmiy va amaliy asoslarining puxta ishlanganligi bilan farq qiladi.

Maqom musiqa, sheʼriyat va raqs sanʼatlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy jarayon.

Oʻzbekistonda maqom asarlari va turkumlari – yana Buxoro “Shashmaqomi”, “Xorazm maqomlari” va “Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari” turkumlari, shuningdek, uning lokal variantlari –Toshkent irogʻi, Qoʻqon irogʻi, Samarqan ushshogʻi, Fargʻona “Surnay maqom yoʻllari”, Xorazm “Dutor maqom turkumi”, “Feruz” turkumi va boshqalar mavjud.

Maqomlar koʻp asrlik tarixiy yoʻlga ega. U oʻziga xos anʼanalar hamda tizimlarga asoslangan, mahalliy uslublarning oʻzaro izchil bogʻlanishlaridan kelib chiqqan. Maqomlarning alohida uslublarining iboralaridan boshlab, oʻziga xos betakror xususiyatlarigacha boʻlgan tomonlari har bir muayyan tarixiy davrning badiiy-estetik gʻoyalari ostida shakllanib kelgan. Ilk bor VII-VIII asrlarda xalq musiqasi negizi va mahalliy professional ijrochilik anʼanalarining

rivoji yirik turkumli janrlar shakllanishiga olib keldi. Jumladan, Borbod ijodiga mansub “Husravoniy” turkumi. IX-X asrlarda maqomsimon cholgʻu va ashula – cholgʻu asar va turkumlar rivojlanadi. XI-XIII asrlardan boshlab, to XVII asrgacha Yaqin va Oʻrta Sharqda “Dovozdaxmaqom” – 12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliyotida qoʻllanib keldi. Ushbu turkumga-Ushshoq (oshiqlar), Rost (toʻgʻri, mos kelish), Navo (kuy, ohang), Busalik (atoqli ot-Abu Solihning olingan), Hijoz (pasttekislik), Husayniy (kishi nomi), Isfahon (shaharga nisbatan), Zirafkant yoki Kuchak (pastga sakrash, tushish va toʻshak), Rahoviy (Rum shaharlaridan biri), Zangula (qoʻngʻiroq, zang), Iroq (mamlakat nomiga nisbatan), Buzurg (katta, ulugʻ) kabi maqomlar, shuningdek, oltita ovoza (avaza, maqomlarga javob yoki nazira tarzida ishlatilgan, masalan, Navroʻz, Shahnoz va boshqalar) va 24 shoʻbalar (maqomlarining shahobchalari, ular orasida Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Uzzol, Muhayyar Sabo va boshqalar.) oʻrin olgan.

XVIII asrda Buxoroda yangi turkum – “Shashmaqom” uzul-kesil shakllandi. XIX asrda “Xorazm maqomlari” turkumi va Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari vujudga keladi. Keyinchalik “Shashmaqom” va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi uslublari va koʻrinishlari zamonaviy talqinda rivoj oldi.

4. Shashmaqomning aytim(nasr) yoʻllari

Maqomlarning aytim(ashula) boʻlimi umumiy nom bilan “Nasr” deb ataladi. Nasr – arabcha “koʻmak”, “zafar” degan maʼnoni bildiradi.

Maqomlar ashula boʻlimidagi birinchi qismga kirgan shoʻbalar guruhi – Saraxbor, Talqin, Nasrlar va ularning Ufarlaridir. Saraxbor, Nasr va Talqinlar oʻzidan keyin ijro etiladigan taronalarga ega. Ashula boʻlimining ikkinchi qismiga kirgan shoʻbalar guruhiga Savt, Moʻgʻulchalar va turli maqomlarning oʻziga xos boʻlgan baʼzi ashula yoʻllari kiradi. Ikkinchi qismga kirgan shoʻbalarning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb ataladigan shoxobchalari boʻlib,

Savt va Mo'g'ulcha kabilar o'zining shu shoxobchalari bilan birin-ketin yaxlit ijro etiladi.⁹

Birinchi va ikkinchi qismni tashkil etgan sho'balar, dastlab, o'zining tarkibiga kirgan shoxobchalari (tarona yoki talqincha, qashqarcha va boshqalari) bilan farqlanadi. Ularning yana bir xususiyati shuki, birinchi qismga kirgan sho'balar guruhi birin-ketin yaxlit ijro etilib kelingan bo'lsa, ikkinchi qismga kirgan Savt, Mo'g'ulchalar o'z shoxobchalari bilan birga alohida-alohida aytilib kelingan, ya'ni Savtning ketidan Mo'g'ulchalar ijro etilmaydi.

Birinchi qismni tashkil etgan Saraxbor, Nasr, Talqin kabi sho'balar va bu qismning Ufarlari Shashmaqom ashula bo'limining asosiy ashula yo'llaridan hisoblanadi. Savt, Mo'g'ulcha kabi sho'balar esa Shashmaqom shakllangandan keyin yaratilgan. Amir Nasrulloxon davri (XIX asr o'rtalari) da ko'chirilgan va Shashmaqomda aytilgan she'rlarni o'z ichiga olgan to'plamda Savt nomi uchrasa ham Mo'g'ulcha nomi keltirilmagan. Shu bilan birga, Savtning shoxobchalari (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma kabilar) nomi va ularga aytilgan she'r matnlari ham berilmaydi. Bundan o'sha davrlarda Mo'g'ulcha va ikkinchi qismga kirgan boshqa nomlar bilan ataluvchi sho'balarning shoxobchalari bo'lmagan edi, degan fikrga kelish mumkin.

Shashmaqom ashula bo'limidagi sho'balarning yuzaga kelishida XV asrda kuchaygan va hozirgi kungacha ham davom etib kelayotgan bastakorlik san'ati an'analari hal etuvchi rol o'ynagani haqida aytib o'tilgan edi. Maqomlar ashula bo'limining tarkibiy qismini tashkil etgan va bastakorlik an'anasining taraqqiyotida muhim o'rin tutgan namudlar masalasiga bu o'rinda alohida to'xtab

⁹ Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. Тошкент. 2006 йил. 163-180 бетлар. ЮНЕСКО ва Марказий Осиё мумтоз мусиқаси – Шашмақомни асраш бўйича Япония Траст Жамғармасининг ҳамкорликдаги лойиҳаси.

UNESCO / Japan Funds-in Trust Project for Safeguarding the Classical Music of Central Asia – Shashmaqom.

o'tish lozim. Namudlar XV-XVII asr musiqa risolalarida sharh etilgan kuy shakllari va o'sha davrdagi bastakorlik an'anasining bizgacha yetib kelgan birdan-bir jonli namunasidir. Qadimiy musiqa risolalarida keltirilgan xona (sarxona, miyonxona), bozgo'y, savt, amal tushunchalarining bizning kunda aniq tasavvur etish mumkin bo'lgan ma'lum variantlaridan biri - namudlar masalasidir. Shuning uchun ham maqomlarning ashula bo'limini tashkil etgan asosiy sho'balari bilan tanishib chiqishdan avval, namudlarga to'xtab o'tsak. Namudlarning ashula yo'llarida guruh shaklida ishlatilishiga sabab ularning bir-biriga silliq ulanishini ta'minlashdir. Namudlar shunga ko'ra quyidagi tartibda oldinma-keyin keladi:

№	Sho'balar va ularning shoxobchalari	Namud va avjlar
----------	--	------------------------

I. Buzruk

Birinchi guruh sho'balari

Saraxbori Buzruk	a) namudi Uzzol b) namudi Muxayyari Chorgoh
Talqini Uzzol	a) namudi Ushshoq b) namudi Muxayyari Chorgoh
Nasrullovi	a) avji Turk
Nasri Uzzol	a) namudi Ushshoq b) namudi Muxayyari Chorgoh
Ufari Uzzol	a) namudi Ushshoq b) namudi Muxayyari Chorgoh

Ikkinchi guruh sho'balari

I.	Mo'g'ulchai Buzruk	a) namudi Uzzol
-----------	--------------------	-----------------

		b) namudi Muxayyari Chorgoh
	Talqinchai Mo‘g‘ulchai Buzruk	a) namudi Uzzol
		b) namudi Muxayyari Chorgoh
	Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Buzruk	a) namudi Uzzol
		b) namudi Muxayyari Chorgoh
	Soqiynomai Mo‘g‘ulchai Buzruk	a) namudi Uzzol
		b) namudi Muxayyari Chorgoh
	Ufari Mo‘g‘ulchai Buzruk	a) namudi Uzzol
		b) namudi Muxayyari Chorgoh
II.	Savti Sarvinoz ¹⁰	a) namudi Ushshoq
		b) avji Turk
	Talqinchai Savti Sarvinoz	a) namudi Ushshoq
		b) avji Turk
	Qashqarchai Savti Sarvinoz	a) namudi Ushshoq
		b) avji Turk
	Soqiynomai Savti Sarvinoz	a) namudi Ushshoq
		b) avji Turk
	Ufari Savti Sarvinoz	a) namudi Ushshoq
		b) avji Turk
III.	Iroqi Buxoro ^{**}	a) avji Zebo pari
		b) namudi Muxayyari Chorgoh

¹⁰ Бу шўъба ва унинг қисмлари намуди Ушшоқ, авжи Туркдан кейин миёнхат воситаси билан туширилади.

^{**} Ироқи Бухоро (аниқроғи Бухорий)да Зебо пари Миёнхат воситаси билан туширилади.

IV.	Talqinchai Iroq	a) avji Zebo pari b) avji Turk
	Chapandozi Iroq	a) avji Zebo pari b) avji Turk
	Soqiynomai Iroq	avji Zebo pari
	Ufari Iroq	avji Zebo pari
	Rok	namudi Uzzol
	Talqinchai Rok***	namudi Uzzol
	Qashqarchai Rok	namudi Uzzol
	Soqiynomai Rok	namudi Uzzol
	Ufari Rok	namudi Uzzol

II. Rost

Birinchi guruh sho‘balari

Saraxbori Rost	a) namudi Segoh b) namudi Ushshoq v) namudi Uzzol g) namudi Muxayyari Chorgoh
	a) namudi Ushshoq b) namudi Uzzol v) namudi Muxayyari Chorgoh
	a) namudi Ushshoq b) namudi Uzzol v) namudi Muxayyari Chorgoh
	a) namudi Segoh b) namudi Navo

*** Тоҷикистоннинг Москвада нашр этилган “Шашмаком” вариантида “Талқинчаи Рок” Мустазод шаклида берилиб, “Мустазоди Рок” деб номланади. Булар орасида анча фарқ бор.

	v) namudi Oraz
Talqinchai Navro‘zi Sabo	avji Zebo pari
Ufari Ushshoq	a) namudi Ushshoq (Dunasr o‘rnida)
	b) namudi Uzzol
	v) namudi Muxayyari Chorgoh

Ikkinchi guruh sho‘balari

I.	Savti Ushshoq*	a) namudi Ushshoq
		b) namudi Uzzol
	Talqinchai Savti Ushshoq	a) namudi Ushshoq
		b) namudi Uzzol
	Chapandozi Savti Ushshoq	a) namudi Segoh
		b) avji Turk
	Qashqarchai Savti Ushshoq	a) namudi Ushshoq
		b) namudi Uzzol
	Soqiynomai Savti Ushshoq	a) namudi Ushshoq
		b) namudi Uzzol
	Ufari Savti Ushshoq	a) namudi Ushshoq
		b) namudi Uzzol
II.	Savti Sabo	avji Zebo pari
	Talqinchai Savti Sabo	avji Zebo pari
	Qashqarchai Savti Sabo	avji Zebo pari
	Soqiynomai Savti Sabo	avji Zebo pari
	Ufari Savti Sabo	avji Zebo pari
III.	Savti Kalon	avji Zebo pari
	Talqinchai Savti Kalon	avji Zebo pari
	Qashqarchai Savti Kalon	avji Zebo pari
	Soqiynomai Savti Kalon	avji Zebo pari

* Тоҷикистон вариантида бу шўъба маълум даражада фарқ этади. Унинг асосий йўлида намуди Уззолдан кейин намуди Мухайяри Чоргоҳ кўшиб айтилади. Чапандоз қисми эса умуман учрамайди.

Ufari Savti Kalon avji Zebo pari

Ilova:

Ushshoqi Samarqand** namudi Ushshoq

Ushshoqi Ho‘qand a) avji Zebo pari

b) namudi Ushshoq

v) namudi Uzzol

Gulyor-Shahnoz

Gulyor Ushshoq sho‘balarining tur-li
ko‘rinishlari

Shahnoz namudi Ushshoq (qaytariqlar bilan)

Chapandozi Gulyor namudi Ushshoq

Ushshoq Ushshoq yo‘lining turli variantlari,
namudi Ushshoq va Uzzol unsurlari

Qashqarchai Ushshoq namudi Ushshoq (Ushshoq variantlari
yana uchraydi)

III. Navo

Birinchi guruh sho‘balari

Saraxbori Navo a) namudi Oraz

b) namudi Navo

Talqini Bayot namudi Bayot (Dunasrga o‘xshash
variantlar tarzida)

Nasri Bayot namudi Bayot (variantlar tarzida)

Orazi Navo a) namudi Bayot

b) namudi Oraz (variantlar tarzida)

Husayniyi Navo* Dunasr

** Бу ерда Ушшоқи Самарқанд Мухаммас (беш мисралик шеър) билан берилган бўлиб, аслида Зебунисонинг “Инжост” радибли шеъри билан айтиларди. Мухаммас билан айтилганда ашула жумлалари баъзи ўзгаришлар билан такрорланиб, ашуланинг ҳажми ҳам кенгаяди. Ушшоқи Самарқанд намуди Уззолга ўхшаш жумлалар билан бошланиб Ушшоққа уланиб кетади. Ушшоқ жумлалари эса турли вариантларда бир неча бор такрорланади. Уларнинг орасида шеърсиз айтиладиган таркибий қисмлар (вокализ – “ҳанг”лар) тез-тез ишлатилади. Намуди Уззол эса жуда қисқа бўлиб, яна Ушшоқ жумлаларига уланиб кетади ҳамда фурувард билан якунланади.

* Бу ўринда намуди Мухайяри Чоргоҳ қўшиб айтилса ашула яна ҳам тўлақонли чиқади.

Ufari Bayot

namudi Bayot

Ikkinchi guruh sho‘balari

I.	Savti Navo**	namudi Navo
	Chapandozi Savti Navo	namudi Navo
	Talqinchai Savti Navo	namudi Navo
	Qashqarchai Savti Navo	namudi Navo
	Soqiynomai Savti Navo	namudi Navo
	Ufari Savti Navo	namudi Navo
II.	Mug‘ulchai Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Talqinchai Mug‘ulchai Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Qashqarchai Mug‘ulchai Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Soqiynomai Mug‘ulchai Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Ufari Mug‘ulchai Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
III.	Mustazodi Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Talqinchai Mustazodi Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Qashqarchai Mustazodi Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo
	Soqiynomai Mustazodi Navo	a) namudi Bayot
		b) namudi Navo

** Илгари бу шўъба “Савти Наво” деб номланса-да, иккинчи шохобчаси бўлмиш Чапандози Наво билан бошланар эди. Бундай ҳол мақсадга мувофиқ эмаслиги “Мақомлар масаласига доир” (Тошкент, 1963, 221-222 бетлар) номли китобимизда кўрсатилиб ўтилган эди. Мазкур “Савти Наво”нинг биринчи қисми Юнус Ражабий томонидан тикланди.

Ufari Mustazodi Navo	a) namudi Bayot
	b) namudi Navo

Ilova: Bayotlar

Bayot I***	a) namudi Bayot
	b) namudi Navo
Bayot II	a) namudi Bayot (ikki marta)
	b) namudi Navo

IV. Dugoh

Birinchi guruh sho‘balari

Saraxbori Dugoh	a) Zebo pari
	b) namudi Muxayyari Chorgoh
Talqini Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
Nasri Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
Orazi Dugoh	Dunasr variantlari
Husayniyi Dugoh	Dunasr variantlari
Ufari Chorgoh	Namudi Muxayyari Chorgoh

Ikkinchi guruh sho‘balari

I.	Savti Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Talqinchai Savti Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Qashqarchai Savti Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Soqiynomai Savti Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Ufari Savti Chorgoh	namudi Muxayyari Chorgoh
II.	Mug‘ulchai Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Talqinchai Mug‘ulchai Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Qashqarchai Mug‘ulchai Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh
	Soqiynomai Mug‘ulchai Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh

*** Баётнинг III, IV, V қисмларидаги намудлар "Намуди Баёт"нинг маълум вариантларининг ривожидан иборат. Бу жилдга киритилган "Баёти Шерозий" ҳам шу Баёт йўлларининг маълум варианты бўлиб, унинг кетига Ю.Ражабий "Соқийнома" усулида ашула йўлини басталаган.

	Ufari Mug‘ulchai Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh
III.	Qalandari Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh
IV.	Samandari Dugoh	namudi Muxayyari Chorgoh
V.	Sarahbori Oromijon	namudi Muxayyari Chorgoh
	Oromijon	namudi Muxayyari Chorgoh
	Ufari Saraxbori Oromijon	namudi Muxayyari Chorgoh
VI.	Chorgoh I	Namudi Muxayyari Chorgoh variantlari

V. Segoh

Birinchi guruh sho‘balari

Saraxbori Segoh	a) namudi Segoh b) namudi Navo v) namudi Oraz
Talqini Segoh	a) namudi Navo b) namudi Oraz
Nasri Segoh	a) namudi Navo b) namudi Oraz
Navro‘zi Xoro	a) avji Zebo pari b) namudi Nasrulloi
Navro‘zi Ajam	avji Turk

Ikkinchi guruh sho‘balari

I.	Mo‘g‘ulchai Segoh	a) namudi Segoh b) avji Turk
	Talqinchai Mo‘g‘ulchai Segoh	a) namudi Segoh b) avji Turk
	Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Segoh	a) namudi Segoh b) avji Turk
	Soqiynomai Mo‘g‘ulchai Segoh	a) namudi Segoh

	b) avji Turk
Ufari Mo‘g‘ulchai Segoh	a) namudi Segoh

Ilova:

Fig‘on	avji Turk
Nimcho‘poniy	a) namudi Segoh
	b) avji Turk
Ilg‘or	avji Turk*

VI. Iroq

Birinchi guruh sho‘balari

Sarahbori Iroq	a) avji Zebo pari
	b) namudi Muxayyari Chorgoh
Muxayyari Iroq	namudi Muxayyari Chorgoh
Ufari Iroq	namudi Muxayyari Chorgoh
Chanbari Iroq	avji Zebo pari

Ilova:

Iroqi Toshkent	namudi Muxayyari Chorgoh
Cho‘li Iroq	namudi Muxayyari Chorgoh

5. BIRINCHI GURUH SHO‘BALARI

Maqomlarning birinchi qismidagi sho‘balari – Saraxborlar, Talqinlar, Nasrlar va ularning taronalari hamda Ufarlar birin-ketin ijro etiladi. Dastlab Saraxborlar taronalari bilan ijro etilib, Talqinlarga va ularning taronalariga o‘tiladi. Keyin Nasr yo‘llari taronalari bilan o‘qilib, Ufarlar ijro etiladi. Shu bilan oxirgi suporish orqali Shashmaqom ashula bo‘limining birinchi qismi tugallanadi.

* Зебо пари кетидан V-VI хатларда Дунастр шаклдаги куй тузилмалари келади. Улар Хусайнийи Наво шўъбасини эслатади. Бизнинг кўрсаткичада намуди Хусайнийи Наво берилмаган. Мазкур ашула қисмини Намуди Хусайнийи Наво дейилса тўғрироқ бўлади.

Maqomlar ashula bo‘limidagi bu sho‘balarning birinchisidan ikkinchisiga o‘tishda uzilish bo‘lmasligi uchun “Suporish” deb ataladigan kichik shakldagi ashula qismlaridan foydalaniladi.

Suporish – topshirish (topshiruv) demakdir. Bunda ma’lum maqom sho‘basining ashula yo‘li, harakati ikkinchi sho‘ba yo‘liga topshiriladi, ya’ni ikkinchi sho‘baga o‘tiladi. Suporish Saraxbor taronalaridan Talqinlarga, Talqin taronalaridan Nasrlarga va ulardan Ufarlarga o‘tishda vosita bo‘ladi. Suporishlarning yana bir vazifasi maqom sho‘balarining xotimasi, yakunlovchi qismi bo‘lib ham xizmat etadi. Masalan, ma’lum bir sho‘ba ijro etilib, taronalariga o‘tilsa, oxirida suporish bilan tushuriladi. Taronalar esa, odatda ashula yo‘llari sifatida musiqa mavzusini tugallay olmagan uchun qandaydir xulosa yasashga ehtiyoj tug‘iladi. Shunda suporishlar “xulosalash” uchun xizmat etuvchi ashula yo‘llari bo‘lib keladi.

Maqomdonlarning aytishicha, maqom yo‘llariga aytiladigan she’rlar doimo yangilab turilgan. Hofizlar o‘zlariga manzur bo‘lgan she’rlardan foydalanganlar. Keksa xalq hofizi Shorahim Shoumarovning aytishicha, ba’zan hofizlar ma’lum bir ashula uchun bir nechadan she’r tanlab olar va o‘rniga qarab: tinglovchilar saviyasi, ta’biga muvofiq aytar edilar. She’rning qaysi tilda bo‘lishida ham tinglovchi hisobga olingan, ya’ni o‘rniga qarab tojikcha va o‘zbekcha g‘azallar solib o‘qila bergan. O‘zbekcha g‘azallar tanlanganida Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo, Mashrab, Amiriy, Muhayyir kabi shoirlarning g‘azallaridan ko‘proq foydalanilardi. Xorazmda esa Munis va Ogahiyning o‘zbekcha va tojikcha g‘azallari maqom hofizlari repertuarida katta o‘rin tutardi.

Ayniqsa Saraxborlar va Talqinlarda Fuzuliyning:

Yorab, baloyi ishq ila qil oshna bani,


Bir dam baloyi ishqdan etma judo bani, -

deb boshlanadigan gʻazalidan koʻproq foydalanardilar.

Maqomdon hofizlar ashulaning tarkibiy qismlarini daromad, dunasr, miyonxat, namud iboralari vositasi bilan tushuntirib kelganlar. Bu esa ashula shaklini tasavvur etishni yengillashtiradi.


Daromad yoki **sarxat** musiqa asarlarining kirish qismi yoki boshlanishi maʼnosidadir. **Miyonxat** undan keyin keladigan ashula jumalari, **dunasr** ashula boshlanish jumlalarining yuqori pardalarda takrorlanishi, deb aytilgan edi.

Saraxborlar. Har bir maqomning ashula boʻlimi Saraxbor deb ataladigan shoʻbalar bilan boshlanadi. Saraxbor ikki soʻzdan tuzilgan boʻlib, “car” – tojikcha bosh, boshlanish, “axbor” arabcha “xabar” soʻzning koʻpligidir, yaʼni saraxbor – axborot beruvchi bosh kuy, ashula, maqomlar ashula boʻlimining asosiy, bosh mavzuidir. Ular Shashmaqomda turli maqomlar nomi bilan qoʻshilib Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh va Saraxbori Iroq deb nomlanadi. Saraxborlarning takt-ritm oʻlchovi $\frac{2}{4}$ (ikki chorak) boʻlib, doyra usuli ikki xil ijro etiladi.



Saraxborlar va ularning taronalari kuy qiyofasi, doyra usullari, ularga aytiladigan sheʼr vaznlari, quydagi xos belgilari nuqtai nazaridan oʻzbek-tojik xalq kuylariga hamohangdir. Saraxborlarning takt-ritm oʻlchovi va doyra usuli xalq kuylarida eng koʻp tarqalgan usullardandir. Ularning doyra usuli xalq musiqasida bir ozgina oʻzgaradi, yaʼni Saraxborlardagi doyra usullari oʻrniga quyidagicha boʻlib keladi:.





Xalq ashulalaridan “Sayding qo‘yaver sayyod”, “Subhidam” (varianti), “Rajabiy I-II”, “Munojot I”, “Hojiniyoz I-II”, “Cho‘li Iroq”, “Daryolarning ul yuzida” kabi maqom yo‘llari asosida ishlangan yuzlab xalq musiqasi asarlarida shu usul qo‘llanilgan. Taronalardagi doyra usuliga mos keladigan juda ko‘p xalq kuy va ashulalari yaratilgan. Ayniqsa $\frac{3}{4}$ takt-ritm o‘lchovidagi taronalar doyra usulida ijro etiladigan oddiy xalq kuylari shular jumlasidandir.

Taronalarning kuy harakati ham karakterli bo‘lib, u sodda shakldagi xalq kuylarining aynan o‘zidir va ular orasida bunday ashula yo‘llari ko‘plab uchraydi. Saraxbori Buzrukning birinchi taronasi xalq kuylaridan “Shod etay” ashulasiga o‘xshaydi.

Talqin. Bu sho‘balar Iroqdan tashqari hamma maqomlarda mavjud va Buzrukda – Talqini Uzzol, Rost maqomida – Talqini Ushshoq, Navoda – Talqini Bayot, Dugohda – Talqini Chorgoh, Segoh maqomida esa Talqini Segoh deyiladi.

Talqin arab tilida “nasihat etish” degan ma’noda keladi. Shashmaqom shakllanishining dastlabki davrlarida Talqin ashula yo‘llariga nasihatombuz g‘azallar aytilgan va shuning uchun Talqin nomi bilan berilgan bo‘lsa kerak. Bundan tashqari, Sharq xalqlari musiqasida Talqin deyilgan doyra usuli ham bor. Demak, hozircha bu sho‘balarga Talqin doyra usulida nasihatombuz g‘azallar bilan ijro etilib kelingan ashula yo‘llari, degan ta’rif beramiz.

Talqinlarning “nasihat” mazmuni Shashmaqomga aytiladigan XIX asrda tuzilgan she’r to‘plamlarida ham o‘z aksini topgan.

Talqinlar qiyofasi va doyra usulining murakkab bo‘lishiga qaramay ular xalqchil, yoqimli va jozibali ashula yo‘llaridir. Ayniqsa Shashmaqom ashula bo‘limining ikkinchi qismiga kiruvchi sho‘balardagi Talqincha shakllari xalq orasida keng tarqalgan.

Nasr.Odatda Saraxbor va Talqinlar taronalari bilan ijro etilganidan keyin Nasrlarga o'tiladi. Nasrlar Shashmaqom ashula bo'limida eng ko'p sonni tashkil etuvchi sho'balardir. Ular har bir maqomda uchraydi va olti maqom bo'yicha hammasi bo'lib 14 tadir. Nasrlar:

Buzruk maqomida –Nasrullovi, Nasri Uzzol;

Rostda – Nasri Ushshoq, Navro'zi Sabo;

Navoda – Nasri Bayot, Orazi Navo, Husayniyi Navo;

Dugohda – Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Husayniyi Dugoh;

Segohda – Nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam;

Iroq maqomida esa, Muxayyari Iroq, deb yuritiladi.

Ufar. Shashmaqom ashula bo'limining birinchi qismi tamomlanishida aytiladigan Ufarlar ma'lum nasrlardan ritmik ham melodik variatsiya sifatida ishlangan. Shuning uchun ham ufar olti maqomning ya'ni Buzruk maqomida Ufari Uzzol, Rost maqomida Ufari Ushshoq, Navo maqomida Ufari Bayot, Dugoh maqomida Ufari Chorgoh, Segoh maqomida Ufari Segoh, Iroq maqomida Ufari Muxayyari Iroq, deb nomlanadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ufarlar doyra usuliga tushirilgan ashula yo'llari doimo ritmik variatsiya bo'lib qola olmaydi, balki boshqa doyra usuliga tushgandan keyin ularning harakatidagi o'ziga xos qonuniyatlariga bo'ysundirilib juda katta o'zgarishlarga uchraydi.

6. IKKINCHI GURUH SHO'BALARI

Savt va Mo'g'ulchalar ko'rinishidagi bir necha sho'balar Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi qismidagi sho'balar guruhiga kiritildi.

Savtlar. Ikkinchi qismga kirgan sho'balar orasida savtlar har bir maqomda quyidagicha nomlanadi: Buzruk maqomida – Savti Sarvinoz**, Rostda – Savti

** Сарвиноз – қадди-қомати келишган, гўзал, баъзи мутахассислар уни киши исмига нисбат берадилар ва ижодкорнинг исми (ёки тахаллуси) деб ҳисоблайдилар. Савти Сарвиноз – гўзал қиёфага эга бўлган Савт маъносида ҳам бўлиши мумкин.

Ushshoq, Savti Sabo, Savti Kalon, Navoda – Savti Navo. Dugohda – Savti Chorgoh deyiladi. Ular Segoh va Iroq maqomlarida uchramaydi⁽⁵⁾.

Savt arabcha soʻz boʻlib “tovush”, “ohang” va “musiqa tovushi” maʼnolarida keladi. Musiqa istilohida uning aks sado maʼnosi ham bor, yaʼni u tayyor bir kuy yoki ashulaga taqlid qilinib, bastakorlikdagi maʼlum qoidalar asosida javob tariqasida yaratiladigan musiqa asaridir.

Maqomdon hofizlarning aytishicha, oʻtmishda Savtlar vazmin va ogʻirroq doyra usulida ijro etilardi. Ular juda yoqimli, ohangdor ashula yoʻllaridir.

Savtlar ijro etilgandan keyin ularning ritmik va kuy variatsiyalari boʻlgan Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar nomli shoxobchalariga oʻtiladi. Bu shoxobchalar Talqinchai Savti Sarvinoz, Qashqarchai Savti Ushshoq, Soqiynomai Savti Sabo, Ufari Savti Chorgoh kabi oʻzlari mansub boʻlgan shoʻbalar nomi bilan qoʻshib ataladi.

Savt va Moʻgʻulchalarning shunday doyra usuliga tushirilgan ritmik variatsiyasi – qashqarcha, yaʼni “qashqarcha usuliga mansub” boʻlgan ashula yoʻllari yuzaga keladi.

Qashqarchalarning takt-ritm oʻlchovi $\frac{4}{4}$ boʻlib, doyra usuli quyidagichadar:




Savtlarning shoxobchalaridan biri Soqiynomalardir.

Soqiynomalarning doyra usuli xalq orasida juda ham mashhur boʻlib, ular joʻrligida koʻpgina kuy va ashulalar yuzaga kelgan. Bunday usullardan eng mashhuri quyidagichadir:



Savtlar o'z tarkibidagi ufarlari bilan tamomlanadi. Savtlarning ufarlari maqomlar ashula bo'limining birinchi guruhidagi ufarlardan asosan farq qilmaydi. Lekin maqomlar ashula bo'limining ikkinchi qismiga kirgan Ufarlar ikki xil usulda ijro etiladi va doyra usul sur'ati bir oz sho'xroq ham jonliroqdir. Ufarlarning takt-ritm o'lchovi $\frac{3}{4}$ yoki $\frac{6}{8}$ bo'lib, doyra usuli quyidagichadir:



Umuman olganda, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufarlarning doyra usuli nog'oralarda ijro etilib kelingan.

Mo'g'ulcha. Maqomlar ashula bo'limining ikkinchi qism guruhiga kirgan yirik sho'balarda orasida Mo'g'ulcha nomi bilan mashhur bo'lgan ashula yo'llari ham alohida o'rin tutadi. Bu sho'baning Mo'g'ulcha deb nomlanishi juda qadimiy tarixiy asoslarga ega bo'lsa kerak. Lekin tarixiy manbalarda bu haqda hech qanday ma'lumot yo'q. Bu nom XIII asr boshlarida O'rta Osiyoni bosib olgan Mo'g'ullar imperiyasining yoki XVI asrda Hindistonda Zahiriddin Bobur barpo etgan "Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi"ga bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lishi ehtimol. Har holda Shashmaqomdagi "Mo'g'ulcha" nomlarida mo'g'ullar musiqsida mashhur bo'lgan doyra usullariga nisbat berilgan bo'lsa kerak. Shunday qilib, Mo'g'ulchalar shu nomli doyra usuliga tushirilgan maqom sho'balaridir.

Mo'g'ulchalar o'zining kuy qiyofasi va harakteri jihatidan Savtlarga o'xshaydi. Ularning doyra usuli ham Savtlardagi kabi, takt-ritm o'lchovi ham doyra usuli quyidagichadir:



XX asrda maqomchilik san'ati Xorazmda, Buxoroda, Farg'onada, Toshkentda rivojlanib, yetuk sozanda-yu xonandalar va bastakorlar ijodi va repertuarlaridan o'rin oldi.

O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etuvchi maqom yo'nalishlari quyidagilardan iborat. Va mazkur yo'nalishlar o'zbek milliy maqom yo'nalishi bo'lib, maqom san'atini yanada taraqqiy etishiga xizmat qilib kelgan.

1. Yalla (maqomot janri asosida yaratilgan yallalar);
2. Katta ashula;
3. Buxoro "Shashmaqomi";
4. "Xorazm maqomlari";
5. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari.

7.Yalla

(maqomot janri asosida yaratilgan)

Yalla keng tarqalgan qo'shiq-raqssimon janr bo'lib, ishqiylik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda yoki yallachi tomonidan) cholg'u ansambli jo'rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo'lidagi yallalarga nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuy bilan farq qiladi. Xalq yallalari tor diapazonli bo'lib, uning she'rdagi har bir bandi va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg'u jo'rliqi (ko'proq doira yoki dutor) da aytilib kelingan. Jozibador va o'ynoqi harakterdagi kuy hammani raqsga chorlaydi. (yalla bu "o'ynab-kuylash qo'shig'i" ma'nosini bildiradi). Yalla mumtoz she'ri va ijrochilik madaniyati rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy qilgan. Harbiy yallada she'rlar bayti soni kuy va xajmiga mutanosib bo'lib, asarning kuy tuzilishi va shaklini (kuplet shakli) ta'minlaydi (she'r matni sifatida xalq so'zlari va o'zbek mumtoz va zamonaviy shoirlarining she'rlari qo'llanadi). Shu tufayli mumtoz yallalar ham jozibali, o'ynoqi harakterda, o'ziga xos raqsobop o'lchovli ritm-usulda aytiladi. Raqsni esa qo'shiqchi-yallachi o'zi emas, balki alohida

raqqosa (yoki raqqos) ijro etadi. Asarning ta'sirchaligi hamma vositalarni bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xushkayfiyat bilan ijro etilishidadir. Bunday birlikni yallaning g'oyaviy-estetik mantiqi, asar obrazining ichki dunyosi hamda kuy-ohang, ritm-o'lchov, shakl va usul singari musiqiy-poetik vositalar keltirib chiqaradi. Shu ma'noda Chokariy so'zi bilan aytiladigan "Mustahzod" yallasi bunga misol bo'la oladi. Bu asar mavzusi muhabbat bo'lib, oshiqning ma'shuqaga nisbatan otashin sevgisi tavsifi yalla mazmunini tashkil etadi. Kuy jozibali harakterda bo'lib, uning rivojlanishi muayyan ohang takroriga asoslanadi. Ancha davomli va ta'sirchan, usluban ufarsifat ohanglar bu asarda boshqa shakllantiruvchi vositalar qatori mohirona ishlatilgan. Ishqiy-lirik yo'sindagi nafis hissiyotlarni ifoda etuvchi misralarni ijodkor o'ta hushyorlik hamda nozik did bilan, mazmuniga, kayfiyatiga monand ohanlar, usullar, sur'at, usul, cholg'u va yallaga xos bezaklarni hamda raqsobop vositalar yordamida birmuncha murakkab musiqiy shaklda bayon etadi. Huddi shu holat "Qalam qoshliging" yallasida ham nomoyon bo'ladi. Yallada zuhur etilgan raqsobop holati musiqiy omillar vositasida yana ham yorqin tus olgan, uning jonli va raqsobop ufar usuli orqali o'ziga xos aks ettirilgan. Yallaning jo'rnovozligi boshidan ohirigacha huddi shu zaylda kechadi.

Mumtoz va zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlari asosida vazni ohangdoshligi hislatlarini yalla uslubiga tatbiq etishni "Surating", "Dog'man", "O'zingsan", "Ko'chabog'i 2", "Fig'ondur" hamda "Gulyor" kabi asarlarda kuzatish mumkin.

Yallalar hozirgi kunda ham tinglovchilarning qalbida nozik tuyg'ular hayajonli fazilatlar uyg'otib, eshituvchi ommanining olqishiga sazovor bo'lmoqda. O'z kuyining rivojlanish uslubi va harakteri jihatidan mumtoz yalla ashula janriga mos keladi. "Ayrilmasin" mumtoz yallasi Muqimiy she'ri bilan xalq orasida

ommalashib ketgan, u sevimli yallalardan bo'lib qolgan. Muqumiy she'rlarining yashovchanligi – ularning yuksak badiiyligi, chuqur g'oyaviyligi va jozibadorligida.

Do'stlar hech kim meningdek yordin ayrilmasun,

Mehribon mo'nis o'shal diydoridan ayrilmasun.

Ishqiy lirik mazmundagi she'r matni asarning keyingi mos tushgan, uning ohangi va ritmik asosi so'zlarning nozik tabiatini, dilkashligini ta'minlaydi. Yallaning asosiy kuyi ravon taraladi, tayanch pardalar esa davomli tovush cho'zimlari orqali berilgan. Kuyning g'azalligi, rivoj topishi, usul ravon harakati bilan avjga yetib borishi va umumiy holatini haqqoniy usullar ila boyitgan badiiy tasvirlash uchun she'r mazmuniga o'ta hushyorlik bilan yondoshish asarning ko'pgina xonandalar tomonidan talqin etilishiga olib kelgan va xalqimiz orasida juda keng tarqalganidan dalolat beradi.

8. XORAZM MAQOMLARI

“Xorazm maqomlari” turkumi Xorazm an'anaviy musiqasining eng yirik namunasidir, u XIX asrda shakllanib, keng rivojlangan. “Xorazm maqomlari” turkumi Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh maqomlaridan iborat bo'lib, har bir maqom o'z navbatida “Shashmaqom” ga o'xshash ikki bo'limdan iborat:

- cholg'u bo'limi-Chertim yo'li yoki Mansur;
- ashula bo'limi –Aytim yo'li yoki manzum deb ataladi.

Xorazm maqomlari “Shashmaqom” kabi ustoz-bastakorlar mahsulidir. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo'ja, Feruz, Komil, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Harratov va boshqalar maqomlarga yangi cholg'u qismlar

bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzulishi, lad asoslari saqlangan holda maqomlar Xorazmga xos musiqiy uslublarda Xorazm maqomlarida baʼzan ashula yoʻllarining doira usullari, kuy yoʻllari ixchamlashtirilib olingan va biroz usul surʼati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan. Xorazm maqomlaridagi kuy yoki ashula yoʻllarida namudlar eng katta oʻzgarishlarga uchragan, “ularning oʻrniga bastakorlar ijod etgan yangi avjlar ham kiritiladi”. Xorazm maqomlarining chertim yoʻli tarkibiga Tani maqom (tasnif vazifasini bajaruvchi), Tarje, Gardun, Muhammas, Saqil qismlaridan tashqari Peshrav va Ufor qismlari kirgan. Xorazmga xos boʻlgan cholgʻu asarlar-Sayri Gulshan, Zarbul futx, Fohitiy zarb (Potixazarb), Xafif ham ayrim maqomlar tarkibiga kirgan. Asar shakllari xona va bozgoh asosida tuzilgan. Doira usullari sodda va yengil, ijro jarayonida oʻzgarishlar kiritishi mumkin. Xorazm maqomlarining aytim-ashula yoʻllari tarkibida shoʻbalar qatori-tanimaqom (Saraxbor vazifasini bajaruvchi), Talqin, Nasr, Ufor, taronalar ham mavjud (faqatgina Tani maqomdan keyin ijro etiladi). Ammo ularga turdosh boʻlgan Xorazmga xos Suvora, Naqsh, Faryod, Muqaddima kabi ashula yoʻllari aytilib kelingan.

Xorazm “Rost” maqomi tarkibi quyidagicha:

Chertim yoʻli	Aytim yoʻli
Tani maqom Rost	Tani maqom Rost
Tarjeʼ	Tarona
Peshravi Gardun	Suvora
Muhammas I-II	Naqsh
Ushshoq muhammasi	Talqin
Saqili vazmin	Faryod
Ufor	Sabo

	Ufor
--	------

“Xorazm maqomlari” turkumi o‘ziga xos mahalliy maqom uslubi sifatida gavdalanadi. U ham Buxoro maqomlari singari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati jihatidan mustaqil ahamiyatga molikdir. Ushbu maqom turkumi voha ijrochilik an‘analari bo‘yicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihago‘ylik ravishda aytilib, Xorazm hududida mashxur bo‘lgan mumtoz shoirlar Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar, Atoiy va boshqalarning she‘rlaridan keng foydalanib kelingan.

Xorazm maqomlarining ashula (aytim) bo‘limlari tarkibidagi sho‘balar “Shashmaqom” yo‘llarining ko‘p jihatlarini asosan saqlab qolgan. Lekin so‘ngi yillarda Xorazm ashula ijrochiligidagi o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq holda, ba‘zi ashula yo‘llari tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketgan. Xorazm maqomlarining aytim yo‘llari Xorazm vohasida “Xorazm maqomlari” turkumidan tashqari besh qismli “Feruz” ashula-cholg‘u maqom turkumi, dutor maqom turkumlari ham keng tarqalgan.

Xorazmda maqomchilik san‘atini targ‘ib etishda Muhammad Rahimxon Soniy, Komil Devoniy, Xudoybergan Muhrgan, Matyoqub Pozachi (Harrat), Matpano Hudoyberganov, Madraim Sheroziy, Xojixon va Nurmuhammad Boltayevlar, Komiljon Otanazarov, Ro‘zmat Jumaniyozov, Ikrom Ibrohimovlarning xizmatlari juda katta va ahamiyatlidir.

9. FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM YO‘NALISHI

O‘zbek milliy musiqasida “Farg‘ona-Toshkent maqomlari” yoki “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari” maqomchilik san‘atining yana bir asosiy turkumini

tashkil etadi. Fargʻona vodiysida XIX-XX asrlarda turkumli va turkumsiz ashula va cholgʻu maqom yoʻllari keng tarqalgan boʻlib, ular voha mumtoz musiqa merosida yetakchi oʻrinlarni egallab, mahalliy ijrochilik anʼanalari bilan sugʻorilgan. Katta va kichik turkumga ega boʻlgan Fargʻona –Toshkent maqom ashula va cholgʻu yoʻllari “Shashmaqom” tarkibidagi bir qator shoʻba (saraxbor, savt), shahobcha (qashqarcha, soqiynoma) va turkumlarga yaqindir (ularning kuy harakati, shakli, usullariga oʻxshash).

Fargʻona-Toshkent maqomlari va maqom yoʻllari 2,3,5,7 qismli turkumlarni tashkil etadi. Ularning har biri maʼlum shahobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi.

Fargʻona-Toshkent maqomlari orasida yirik ashula turkumlari:

Bayot I—V,

Chorgoh I—V,

Gulyor-Shahnoz,

Dugoh-Husayniy I—VII (ularning har bir qismi umumtartib soni raqamlari bilan belgilanadi. Gulyor-Shahnoz maqomidan tashqari), **masalan,**

Bayot I, Bayot II, Bayot III, Bayot IV, Bayot V.

Yirik maqom cholgʻu yoʻllari orasida turkumli (yakkasoz yoki cholgʻu ansambli ijrosida); Chorgoh I—V; Miskin I—VII, Nasrullohi I—III, Navroʻzi ajam taronalari I—III; Hojiniyoz 1—II, Surnay maqom yoʻllari va boshqalar. Bulardan tashqari, alohida ashula va cholgʻu maqom asarlari hamda yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Fargʻona vodiysiga xos boʻlgan, katta ashula va cholgʻu yoʻllari asosida “Shashmaqom”ning shoʻba va shahobchalari mutanosibligida yuzaga kelgan. Masalan, Yovvoyi Chorgoh, Yovvoyi Ushshoq, yovvoyi tanovar (ashula va cholgʻu yoʻllari) asosida “Shashmaqom”ning shoʻba va shahobchalari

mutanosibligida yuzaga kelgan. Masalan, Yovvoyi Chorgoh, Yovvoyi Ushshoq, Yovvoyi tanovar (ashula va cholg'u yo'llari), Cho'li Iroq, Toshkent Iroqi, Qo'qon Iroqi, Samarqand yoki Hoji Abdulaziz ushshog'i, Toshkent yoki Mulla To'ychi ushshog'i, Xo'jand yoki Sadirxon hofiz ushshog'i va boshqalar.

Farg'ona-Toshkent maqomlari "Shashmaqom" ashula bo'limining sho'ba, shaxobcha va taronalarining ohang, usul va shakllari tarkibida shakllangan va ashula yo'lining harakati asosida rivoj topgan.

Birinchi qism-Sarahbor negizida,

ikkinchi qism-uning taronasi yoki nasr asosida,

uchinchi qism– savt,

to'rtinchi qism– qashqarcha va

beshinchi qism-soqiynoma yoki ular asosida.

Bayot, Chorgoh va Dugoh-Husayniy maqomlari "Shashmaqom" ning shu nomlar bilan atalgan sho'balari ("Navo" va "Dugoh" maqomlari) asosida yaratilgan bo'lib, Gulyor-Shahnoz esa turli maqom sho'balari atalgan sho'balari ("Navo" va "Dugoh" maqomlari) asosida yaratilgan bo'lib, Gulyor-Shahnoz esa turli maqom sho'balari ("Segoh" va "Rost" maqomlari) asnosida yuzaga kelgan (ushbu maqomlarning beshta qismi o'z nomiga ega: Gulyor, Shahnoz, Chapandozi Gulyor, Ushshoq va Ufori Gulyor deb ataladi). Gulyor-Chapandoz maqomi o'z tuzilishi jihatidan boshqa turkumlardan farq qiladi. Lekin, Gulyor – Chapandozning shohobchalari mazmunan va usluban ancha murakkab, original ashula maqom yo'llaridir. Ular jozibali, yoqimli ham ta'sirchan

ohanglarga boy. “Chorgoh” maqom besh qismli bo‘lib, “Shashmaqomning” Dugoh maqomi sho‘balari asosida yaratilgan. Chorgoh I o‘zining ulug‘vorligi, yoqimlilik bilan Dugoh saraxbori kuy shakli sifatida yuzaga kelgan; lekin kuy rivoji qisqartirilgan va unga ma’lum o‘zgartirishlar kiritilgan. Daromaddan avjga (Muxayyaari Chorgoh namudi saqlangan) kuy yo‘nalishi va harakati Saraxborga o‘xshab (doira usuli, sur‘ati, she’r vazni saqlangan). Chorgoh 2 tarona uslubida Chorgoh savti variantidir. Chorgoh 3 – Chorgoh savti asosida aytiladi, ammo uning doira usuli va shakli soddalashtirilgan. Chorgoh 4 - Chorgoh savti qashqarchasi ko‘rinishida bo‘lib, kuy mavzui, shakli va doyra usuli saqlangan. Chorgoh 5- ufor doyra usulida bo‘lib, uning sur‘ati ancha sustlashtirilgan. Lekin ijro uslubi o‘ziga xosligi bilan harakterlanadi. Chorgoh maqomi turkumi vodiy ijro uslubiga moslashtirilgan holda “Shashmaqom” sho‘balaridan qisqartirib olingan (kuy harakati va rivoji, xanglar ishlatilganligi, avjlar qisqartirilishi yoki umuman tushirib qoldirilishii, usul variantlari qo‘llanishi bilan ravshan bo‘ladi).

Farg‘ona Toshkent maqomlari an‘anaviy ijrochiligida keng tarqalgan bo‘lib, o‘zbek bastakorlari tomonidan ularning yangi variantlari yuzaga keltirilgan, jumladan Chorgoh VI (ufar uslubida) va Dugoh Xusayniy VII-VIII (ufora suporish shakllarida) Yunus Rajabiy ijodiga mansub.

So‘nggi yillarda Farg‘ona-Toshkent maqomlarining o‘zbek bastakorlari tomonidan yangidan-yangi variantlari yaratilishi, ushbu maqomlarni yanada rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, besh qismli Nasrulloi (ashula va cholg‘u) turkumi rivoj topdi.

Miskin cholg‘u turkumi asosida Miskin ashula turkumi (etti qismli), ushshoq asosida «Qadimgi ushshoq», «Zikri ushshoq», «Umrzoq Polvon ushshog‘i» va boshqa asarlar taniqli xonanda va bastakor Fattohxon Mamadaliyev tomonidan

ijro etilgan. Bulardan tashqari, xalq orasida Rasulqori ushshog'i, Orifxon ushshog'i, Fattohxon ushshog'i kabi asarlar ham keng tarqalgan.

Farg'ona-Toshkent maqomlarini targ'ib etishga Hoji Abdulaziz, Abdurasulov Sodirxon Hofiz Bobosharipov, Yunus Rajabiy, Abduqodir Ismoilov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzaqov, Imomjon Ikromov, Orifxon Xotamov, Rasulqori Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Abduxoshim Ismoilov, Maxmudjon Tojiboyev va boshqa maqom ustlari katta hissa qo'shganlar.

Maqomlarning bosh mezoni sifatida qabul qilingan va ulkan xajmga ega va murakkab tizim, lad, usul, majmuasi bo'lmish Shashmaqom O'rta Osiyo maqomot yo'nalishlarining bosh bo'g'inidir.

10. An'anaviy xonandalik madaniyati haqida

Sharqda an'anaviy xonandalik o'tmishdan turkiy xalqlar musiqa san'ati ijodida oddiy ko'rinishlardan murakkab shakllargacha takomillashib, rivojlanib kelgan va xalq orasida ommalashgan maktabi sifatida namoyon bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, xonandalik amaliyoti ham hofizlik bilan bog'liq atama musiqa san'atining ustozona shakli ijrochilari orasida ommalasha boshladi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida katta ashula ijrochilari faoliyati doirasida munosib o'rnini topdi. Ustoz darajasidagi har bir mohir xonanda ashulachilar xalq orasida muxlislari tomonidan "Hofiz" deb yuritish ommalashdi. Ungacha mumtoz xonandalar "Savtxon", "Nasrxon" yoki "Nasrchi", "Mug'anniy", "Go'yanda" nomlarida atalib kelinganligi sir emas. Shu davrdan boshlab O'zbekistonning har bir vohalarida o'ziga xos lokal xususiyatlarni o'zida mujassam etgan ijrochilik an'analari rasm bo'ldi va bu an'analarning ijrochilari "Hofiz" deb yuritila boshlandi. Har bir vohada o'zining lokal ahamiyat kasb etuvchi hofizlari shakllandi. Albatta, bu jarayon mahalliy va shaxsiy ijrochilik uslublari negizida yuzaga keldi. Bu jarayonga tahliliy nazar bilan yondashadigan bo'lsak quyidagi manzaralar guvohi bo'lamiz.

Farg‘ona vodiysi hofizlik an‘analarida ijrochilik maktablari mavjud. Ijro maktablari avvalo hududiy ahamiyat kasb etsa, xonandalik amaliyotining rivoji jarayonida shaxsiy ijro uslublarining yuzaga kelganligi ham ko‘p kuzatilgan. Bunga Farg‘ona vodiysiga xos katta ashula ijrochiligining keng ommalashishi, sabab, deyish mumkin. Har bir maktab o‘z namoyondalari va ularning ustozligiga dalolat beruvchi ijro uslubiga ega.

“Shashmaqom” an‘anasi Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini yuzaga kelishiga asos bo‘lganligi sir emas. Aynan ushbu yo‘nalishni samara topishi esa hofizlik an‘analarida “Shashmaqom” ijrochiligi mavjud ekanligidan dalolatdir.

Farg‘ona vodiysida vujudga kelgan ijrochilik maktablari deyarli barcha viloyatlar va yirik shaharlar bilan bog‘liqdir (Andijon, Marg‘ilon, Yozyavon, Qo‘qon, Farg‘ona, Yangiqo‘rg‘on, Asaka, Namangan va h.k). Shaharlar esa namoyondalarga asoslanadi. Bundan tashqari ushbu vodiya shaxsiy ijro uslublar ham nisbatan keng ommalashganligi bilan karakterlanadi. Farg‘ona vodiysi hofizlik an‘analarida katta ashula ijrochilik yo‘nalishi o‘ziga xos tarzda amaliyotda o‘rin olgan.

Temuriylar davrida an‘anaviy professional musiqa ijrochiligida muayyan mahalliy hislatlar namoyon bo‘la boshladi. Shu alfozda 12 ta arab maqomi, 12 ta uyg‘ur maqomi, 7 ta Eron dastgohi, 7 ta Ozarbayjon mug‘omi, 6 ta o‘zbek maqomlari paydo bo‘ldi. Bu turkumlar ham o‘z navbatida, mahalliy musiqiy sheva ta‘sirida yangi mukammal turkumlar yaratilishiga turtki bo‘ldi. Hususan, o‘zbek zaminida Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari yuzaga keldi.

1404 – 1406 yillarda Samarqandda bo‘lgan Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo o‘z kundaliklarida Sohibqiron Amir Temur turli mamlakatlardan yuz mingga yaqin olimlar, hunarmandlar, me‘morlar, san‘atkorlar Samarqandga oldirib kelinganligini batafsil hikoya qiladi.¹¹

11. Kuylash malakalari haqida.

¹¹ Рюи Гонзалес де Клавихо. Жизнь и деяния великого Темирлана :дневник путешествия по двору Темура в Самарканде.1403-1406. стр.136.

An'anaviy xonandalik bo'yicha kuylash malakalarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berishi lozim.¹²

1. nafas olish, tovushni to'g'ri shakllantirish;
2. nafas olish va uni tejamli sarflash;
3. kuylayotgan paytda qomatni to'g'ri tutish;
4. yelkalarni ko'tarmasdan, shovqinsiz, erkin va chuqurroq nafas olishga harakat qilish;
5. kuylayotgan vaqtda og'izni erkin ochib, so'zlarni aniq va burro talaffuz qilish;
6. sof, tiniq va jozibali kuylash;
7. barcha registrlarda yuqori ovoz xosil qilib kuylay olish;
8. turlicha ovoz sadolari bilan kuylay olish sanoyi nafisa ovoz afzalliklaridan foydalanish;
9. ovoz tayanchini hosil qilish;
10. nafasni qovurg'ani pastida, qoringa olish, shovqinsiz va uni tejamli sarflash;
11. kuylashda ovoz dinamikasini hosil qila olish, musiqa asari jummlarini badiiy ijro etishda undan unumli foydalanish;
12. legato va Stakkatoda kuylash;
13. ansambl jo'rligida va yakka xonanda sifatida kuylash;
14. o'zi chalib kuylashga o'rganish;

12. Ovoz mashqlari

Quyidagilar ovoz mashqi hisoblanadi:

1. nafas olish va uni chiqarish mashqlari;
2. talaffuz artikulyatsiya (i, a, o, m, t, pi, zi, to, tu) diksiya (so'zlarni dona- dona, burroligi) uchun mashqlar;
3. ashula, qo'shiq so'zlari ustida ishlash;
4. ovozni o'stirish, ovoz diapozonini kengaytirish uchun mashqlar;
5. ovoz paychalarini qizdirish va qo'shiq aytish uchun tayyorgarlik mashqlari;
6. Nafas olish va uni tutib turish mashqlari;

¹² Ю.Бокихонов. Хонанда овозини йўлга қўйиш ва анъанавий хонандалик. Услубий қўлланма. Наманган. 2014.

6. ovozni toblash, yuqori pardalarda ovozni tutib turish mashqlari; Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlash. (ovoz mashqlari) Ma'lumki har bir mashg'ulot xonandaning ovozlarini qo'shiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini ko'zda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi. Mashqlar 10-15 daqiqa va undan ko'proq davom etishi mumkin. Bu ovozni to'g'ri hosil qilish, to'g'ri nafas olish, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishishga yordam beradi.

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlashning quyidagi to'g'ri uslublari mavjud:

1. mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo'yicha kichik guruhlar bilan ishlash.
2. ma'lum unli tovushlar, bo'g'imlar va so'zlar yordamida ish olib borish.
3. turli tovush yo'nalishlarida (legato, stakkato, markato, nonlegato) uslubida ish olib borish.
4. turli dinamik (tovush kuchi) sur'at uslubida ish olib borish.
5. ayrim halq qo'shiqlari bo'laklaridan foydalanib ijro qilish.
6. diapozonning ma'lum qismida
7. (registrda) kengaytirib ish olib borish.
8. ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabga bo'lgan tartibda olib borishdan iborat.

13. Ashula matni ustida ishlash

An'anaviy xonandalikda xalq ashulalari namunalarini yoshlarga singdirishda milliy ijrochilikda muhim bo'lgan so'z va talaffuzning o'rnini beqiyosdir. An'anaviy xonandalik san'atida idroklash lozim bo'lgan quyidagi nazariy va amaliy malakani to'la o'zlashtirishni taqozo etadi. Bular, an'ana va meros, nafas ishlatish uslubi, she'riyat va talaffuz hamda munosabat amillaridir. Bu omillar xonandalik amaliyotida charxlanib, o'zlashtiriladigan zarur holatlar ekanligini unutmaslik lozim.

Ijrochilikni shakllantirishda so'z va talaffuz mahorati asosiy muammolardan biridir. Ma'lumki, she'riyat va musiqa azal-azaldan bir-biriga yo'ldosh san'at turlari sifatida, shakllanib, rivojlanib, ardoqlanib kelingan. Ohanglar bag'rida

she'ring, ya'ni so'zlarning ta'siri yanada jonli, ta'sirchan va yoqimli bo'ladi. Shunday ekan, ijrochilik bilan shug'ullanayotgan har bir yosh xonanda she'riyatdan bohabar bo'lishi zarur.

Mumtoz ashulalarning mohir ijrochisi Orifxon Hotamov: "Agar mumtoz ashulalarni kuylamoqchi bo'lsang, matnni sinchkovlik bilan o'qi, she'r, g'azal zamiridagi ma'noni, shoir maqsadini to'la tushunib ol, ana shundan keyingina ashula ustida ishlagin. Sen kuylagan ashulalar tinglovchi qalbiga qanday yetib borganini o'zing ham sezmay qolasan".¹³ Komiljon Otaniyozov ham shogirdlariga: "Xonanda savodli, ma'lumotli bo'lishi, og'zidan chiqqan so'zning ma'nosiga tushunish uchun adabiyotni ko'p o'qishi kerak. Adabiyot bilan san'at og'a-ini, balki egizakdir. Haqiqiy xonanda shoirlar, adiblar bilan yaqin aloqada bo'lmog'i lozim¹⁴- der ekan.

Hikoya qilishlaricha, Rasulqori Mamadalyiev navbatdagi ashulasini tayyorlar ekan, undagi bir so'zning mazmunini sira chaqolmabdi.

O'sha birgina so'zning ma'nosini tushuntirib beradigan kishini butun Qo'qondan izlab topolmagach, ikki ko'zi ojizligiga qaramay, Farg'onaga boradi. Ikki kun ovora bo'lib, o'sha so'zning ma'nosini bilib olgachgina qo'shig'ini rasman ijro eta boshlaydi.¹⁵

So'zimiz avvalida biz yuqorida Abu Abdullo Rudakiy va el sevgan buyuk ustozlarimizni bejiz eslamadik.

Hozirgi davrda ijrochilar tomonidan ijro etilayotgan she'r va g'azallarning to'g'ri talaffuz etilishiga e'tibor oz. Bu esa azal-azaldan ongli ravishda mukammal o'rganilib, to'g'ri ijro etib kelingan an'anaviy jarayonga putur yetkazishi mumkinligini e'tirof etish joiz. Aks holda, ijro namunalarini chala holda va noaniq ijro etilish hollariga olib keladi.

O'zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova ijrochilar talqinida so'z va talaffuz muammolariga to'htalib shunday degan; "Odatda amaliyotda ustozlarimiz

¹³ "Қўшиқ - менинг борлиғим" (Р.Турсунов ва М.Дадабоева баҳси). Ўзбекистон адабиёти ва санъати" ҳафтаномаси.2008.25 апрель.

¹⁴ Зоҳидов Ф.Комилжон Отаниёзов. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1980.

¹⁵ Сокин Ш.Етти мулоқот.44 – бет.

tomonidan ushbu amalga katta etibor bilan qaralgan. Hozirgi paytda bunday nuqsonlarni ko‘payish sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

- so‘z bo‘g‘inlarining ohanglarga, taktlarga noto‘g‘ri bo‘linganligi;
- unli va undosh tovushlarning noto‘g‘ri talaffuzi;
- so‘zlarning urg‘usini almashtirib, noaniq shevada ijro etish.

Har uch holat ham qo‘shiqqa-she‘r yoki g‘azalga va ularning ohang bilan mutanosib talqiniga befarq munosabat oqibatlarining natijasida kelib chiqadigan holat, desak adashmaymiz”.¹⁶

Talabalar bilan halq ashula va maqomlarimizni kuylash chog‘ida so‘zlarda nokerak harflarga urg‘u berib kuylash ko‘plab kuzatib kelinmoqda. Masalan, ashulada kelayotgan barcha “I” harflarni bo‘rttirib ”III” tarzida ortiqcha urg‘u bilan kuylaydilar, yoki “A” harflarni nihoyatda “ochiq, yalang‘och” holda kuylaydilar. Natijada ijro darajasi tinglovchiga “ijro yoqimsiz, malol kelib” g‘ashini keltiradi. Bu o‘rinda biz namunaviy ijro orqali bu holatda harflar qanday kuylanish kerakligini ko‘rsatib beramiz . ”I” harflari ”UUUY” tarzida, ”A” harflar esa “OO‘O‘O” tarzida ashula ohangi bilan kuylab beriladi.

Talaba doim ashula matnida “O” harfini so‘z o‘rtasida yoki so‘z ohirida bo‘lsin noto‘g‘ri talaffuz qilib kuylaydi. ”Vafo”. “Fido” deb. Lekin an‘anaviy xonandalikda akademik vokal ijrochiligi talablaridan kelib chiqib, talaffuzda “O” harfini talaffuz yakunida og‘izni yopib, “OV” deb talaffuz qilish talab etiladi.

Bu borada albatta mutaxassis o‘qituvchining talabalarga namuna tarzidagi jonli ijrosi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mutaxassislik o‘qituvchilari an‘anaviy ashula ijrochiligida mavjud bo‘lgan barcha milliy bezaklarni ovozda ko‘rsata olishi va uni talabalarga singdira olishi muhim omillardan biri. Masalan, titratma, qochirim, nola, zangula kabi atamalar bilan mashhur bo‘lgan milliy ijrochiligimiz bezaklari shular jumlasidan bo‘lib, mohirlik bilan, har birini o‘z harakterida ifoda etish ko‘zda tutiladi.

¹⁶ Замира Суюнова. Ёш хонандалар талқинида сўз талаффузи муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент-2006 йил. 23 бет.

Bu ham ma'lum muddatdan so'ng amalga oshiriladi, chunki xonandalik amaliyoti bolalar yoshidan kelib chiqib turli xususiyatlarga ega. Uning ustiga ovoz o'zgarishi jarayoni kechadi. U paytda xonandaning ovozigacha kuch berish hamda noto'g'ri nafas yo'lini o'rgatish aslo mumkin emas.

Ovozni xonanda 17-19 yoshdan o'tganidan so'nggina ohistalik bilan yo'lga qo'yish lozimdir. Ovoz yillar davomida xonandaning imkoniyat darajasida o'z-o'zidan, ya'ni ashula o'rganish jarayonida asta-sekin shakllanib, o'z yo'lini, pardasini topa boradi. An'anaviy ijrochilikda, nola qochirimlar, nim pardalar ustida juda ko'p yillar ishlash mobaynida haqiqiy o'zbekona ovoz yuzaga keladi. Ustozlar shunday deydi: – «Bitta hofiz, xonanda 15-20 yilda yetuk ashulachi bo'lib yetishadi». Bu gaplar to'g'riligining isbotini o'z tajribamizda ko'rganmiz.

Xonandalikda ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko'lami, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va boshqa sifatlari tabiatan xilma-xil bo'lishi hisobga olinishi shart¹⁷.

Burungi davr ayrim savodxon musiqachilar tomonidan ovozlarni ta'riflash, bir-biridan farqlash, kasbiy jihatdan baholash uchun qator maxsus atama va iboralardan foydalanilgan. Demak, talaygina aniq tushunchalar og'zaki bo'lsa-da, muttasil ilmiy-amaliy muomalada bo'lgan.

Ammo Respublikamizda joriy etilgan maxsus musiqa o'quv tizimida avvalgi tajriba deyarli qo'llanilmadi. Ya'ni akademik xonandalik ovozlari umum yevropacha aniq nomlangan taqdirda, o'zbek milliy ashulachiligining tafsilotlari ko'pchilikka mavhumligicha qolaverdi. Oqibatda an'anaviy yo'nalishdagi eski ustoz-shogirdlik (maktab) larining yutuqlari aksariyat hollarda kishilarning xotirasidan ham chiqa yozdi. Buning isboti uchun birgina misol keltiraylik. Andijon viloyatining Baliqchi tumani Eski Xalqobodda yashab o'tgan san'atkorlardan biri, o'z davrida mashhur sozanda (dutorchi, tanburchi) va

¹⁷.Исроилова – Қосимова. Ҳ. Анъанавий ҳофизлик санъати (Яккаҳон қўшиқчилиқ). Санъат, маданият коллежлари ва академик лицейлар учун ўқув қўлланма. Тошкент. "Ворис-Нашриёт" – 2007 йил.

ashulachi, ustoz Umrzoqpolvon Saidalining ovozi nor ovoz deb yuritilganini eslatishimiz mumkin.

Asosiylari quyidagi nomlarda yuritilgan:

«Nor ovoz»;

«Tik ovoz» (yoki «jarangdor ovoz»);

«Jarangdor ko‘krak ovoz»;

«Quyuq tik ovozi» (yoki «jarangdor ovoz»);

«Bo‘zak ovozi (yoki «moda ovoz»);

«Pang ovoz»;

“Ishkami ovoz».

Bularning ayrimlariga qisqacha tavsif berib o‘tamiz.

Nor ovoz

“Nor ovoz” (ma’nosi «tuya ovoz») tovushlar ko‘laminig kengligi, salobatli kuchga egaligi bilan ta’riflanadi.

Bunday toifadagi ovozning past-u baland oralig‘i katta bo‘lishiga qaramay, ayni paytda ovoz sifati yumshoq, mayin hamda egiluvchandir. Odatda bunday ovoz sohibining tepa pardalari o‘ta baland darajada bo‘lmaydi.

Tasavvur etishga qulay bo‘lishi uchun amaldagi nota yozuvi yordamida belgilanadigan bo‘lsa, bunda uning kenglik ko‘lami, ya’ni diapazoni birinchi oktava «do» tovushidan qariyb uchinchi oktavadagi «do» tovushigacha yetadi. Undan yuqoriroq tovushlarni «nor ovoz»li xonanda olishi qiyin.

Yorqin «nor ovoz» sohiblaridan, misol tariqasida, avval tilga olingan Umrzoq Polvon Saidali qatorida mashhur o‘zbek hofizlaridan Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Abdulla Taroq Fayzullayev, Jumavoy Polvon, Saidxon To‘ram (Andijon) kabilarni eslab o‘tishimiz mumkin.

“Nor ovoz» og‘iz bo‘shlig‘ida, ya’ni tanglay tomondan «urib» chiqarilishi bilan ham yoqimlidir. Bu sifat ovozda xalq va bastakorlik ashulalari, yallalar, katta ashulalar, shuningdek, maqom ashula yo‘llari chiroyli va ta’sirchan ijro etiladi. Katta ashula aytilishida esa, odat bo‘yicha, ya’ni ikki yoki uch ishtirokchi

hamnafasligida ijro etilgan taqdirda, aynan «nor ovoz»li xonanda ashulani boshlab beradi, soʻngra qolganlar navbatma-navbat keyingi bayonlarda qoʻshilishib, soʻngra birga tushirishadi.

Tik ovoz yoki Jarangdor ovoz

“Tik ovoz», yoki «Jarangdor ovoz» koʻproq Fargʻona vodiysi Toshkent mahalliy uslubiga xos boʻlib, u har xil ashulalarni, ayniqsa katta ashulalarni ijro etishda alohida oʻrin egallaydi. Chunki ilgarigi vaqtlarda tom manoda tik ovozi boʻlmagan ashulachilar umuman ashulachi hisoblanmas edi. Maʼlumki, ayrim musiqachilar dutor yoki tanbur joʻrligida ham ashulalar ijro etardilar. Ular ham sozanda, ham xonanda boʻlib, tik ovozlari bilan avjda uchinchi oktava re-mi tovushlarini bemalol olardilar. Bunga misol boʻla oladigan zabardast hofizlardan Berkinboy Fayziyev, Komiljon Qurbonov (Eski Haqqulobod), Turgʻun novcha, Mulla Kenja Holiqov, Mirza Olim (Toʻrtkoʻl qishlogʻi), Abduraim qori (Xonobod), Musajon aka (Shahrixon), Foziljon va Ikromiddin, Mamadbuva Sattorov (Margʻilon), Qoʻqonlik Mamadali qori, Meliqoʻzi, Otamirza aka, Oʻtanboy Sarimsoqovlar kabi ashulachilardir. Oʻzbekiston xalq hofizlari Odiljon Yusupov, Eson Lutfullaevlar ham ana shular safidagi ashulachilardir. Bular ham maqom yoʻllari, ham katta ashulalarni meyoriga yetkazib aytib kelgan xonandalardan.

Odatga koʻra tik ovoz sohiblari ashulani boshlamaydilar. Katta ashuladami, soz joʻrligida aytiladigan misoldami — hamma vaqt ular ashulani maromiga yetkazib ijro etishgan. Maʼlumki, hozirda ham ana shunday koʻrkam anʼanalar davom ettirilmoqda.

Jarangdor koʻkrak ovoz

Bunday ovozlarda oʻzbek xonandalari orasida koʻplab uchraydi. Koʻkrak ovoz past pardalarda ham, yuqori pardalarda ham oʻzining jarangdor sifatlarini yoʻqotmaydi. Uning tabiati shundaki, jarangdorligi va tiniqligi tufayli hatto joʻrovozlikda ham ajralib eshitilaveradi. Avj pardalari yuqori, jumladan uchinchi oktava do tovushiga qadar yetadi. Shuningdek quyi pardalarda ham bunday ovoz aniq va ravon eshitiladi.

Taraladigan tovushlarda ko‘proq o‘ynoqi bezaklarga boy pardalar ko‘pligini kuzatish mumkin. Misol qilib, Ma‘murjon Uzoqov, Akbar Haydarov, Rasulqori Mamadaliyev, Komiljon Hamroqulov, Zokirjon To‘rayev, Nazarali Dadajonov kabi ashulachilarni ko‘rsatish mumkin. Hozirgi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan yetuk yosh xonandalardan Mahmud Yo‘ldoshevning ovozi ham aynan jarangdor ko‘krak ovoz toifasiga mansub.

Quyuq tik ovoz

“Quyuq tik ovoz»lar ko‘proq katta ashulachilarga xos bo‘lib, ular ashulaning eng yuqori pardalarini zabt eta oladilar. Aslida bunday ovoz jarangsizroq eshitiladi. U ashulaning eng pastki tuzilmalarida aniq eshitilmay tursa-da, o‘rta pardalardan boshlab yaqqol ajralib yangraydi. To‘g‘risini aytganda, pastki pardalar kamroq bo‘ladi. Ashula rivoji hisobiga ularning avj pardalari juda baland bo‘lib, toki uchinchi oktavaning mi, fa, hatto fa diez pardalarigacha yetib boradi. Bunday ovoz sohiblaridan atoqli hofiz va bastakor o‘raxon Sultonov, shuningdek, Abbosqori, Haydarali Hikmatov (Qo‘qon), Xudoyberdi Qori (Norin), Nabijon Saidnazarov (Chinobod), Muyiddinhoji Alixo‘jayev, Mannonqori (Andijon), Mamatxo‘ja Eshon, Nazir Polvon (Andijon, Baliqchi) va boshqa ashulachilarimiz yorqin misol bo‘la oladi.

Hasta ishkami ovoz

Hasta ishkami ovoz egalari ham xonandalar orasida ko‘p uchrab turadi. Bunday ovoz yordamida uncha yuqori pardalarni zabt etib bo‘lmasa-da, u o‘zining ta’sirchanligi bilan tavsiflanadi. Uning eshitilishi go‘yo o‘zidan shikoyat qilayotgandek, hol-ahvolidan samimiy dil izhoridek tuyulib, kishiga o‘zgacha ta’sir qiladi va huzur bag‘ishlaydi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, Hasta ishkami ovoz ning pastki qismdarda ham yuqori pardalarda ham jarangdorligi nisbatan kamroq bo‘ladi.

Bu toifadagi ovozlar bilan ko‘proq dardli, alamli, mungli ashulalar ijro etilsa, nihoyatda ta’sirchan chiqadi. Ishkami ovoz egalaridan G‘ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, Umar Otayev, Tolib To‘rayev, Uraimjon Qori (Qo‘qon),

Sobir Qori Normatov (Andijon), Qosimjon Oxunov kabi taniqli xonandalarni aniq ko'rsatishimiz mumkin.

Bo'zak yoki moda ovoz

Bunday ovoz turi ham uchrab turishi tabiiy, albatta. Unga milliy shiradorlik, jozibadorlik, jumladan o'ynoqilik ham, yig'loqilik ham xos emas. Hozirda mazkur ovozlar asosan ko'p ovozli kompozitorlik asarlarini ijro etishga ko'r-ko'rona ergashgan yoki ustoz ko'rmay, o'ziga havaskorona yo'l tutgan ba'zi xonandalarda bo'lishi mumkin.

Ovozni o'ynatish yoki yig'latish uni rivojlantirish, ayniqsa, tovushni siqib, yuqori pardalarga chiqarish malakasini egallash — xonandaning eng zarur kasbiy ishlaridan biri sanaladi.

Pang ovoz

Aytishimiz shartki, ovozlar orasida o'zaro o'xshashlik ham uchraydi. Ba'zida o'xshatishga intilish katta ahamiyat kasb etadi. Har bir bo'lajak xonandaning harakatlari o'zi ma'qul ko'rgan u yoki bu hofizga taqlid qilishdan boshlashini inobatga olish kerak.

Pang ovoz Xorazm vohasidagi xonandalar orasida ko'proq uchraydi. U ham kuchli, ham baquvvat nafasli sifatlarga ega. Mashhur hofizlardan Hojixon Boltaev, unga ergashib kasbiy voyaga yetganlardan Ro'zmat Jumaniyozov, Quvondiq Iskandarovlarning noyob ovozlarni ana shu toifaga kiritish mumkin.

Boshqa ovozlar

O'zbekistonda uchraydigan ovoz toifalaridan yana biri yahudiy millatiga mansub bo'lgan asosan Buxorolik va Samarqandlik xonandalarga xosdir. Bunday ovoz-u nafas orqali kuylash uslubi o'zbeklarda bo'lmagani sababli uning maxsus nom atamasi ham yo'q. Chunki bizningcha, u ko'proq ayrim forsiyzabon xalqlarga xos bo'lib, keyinchalik uni Buxoro yahudiylari o'zlariga moslashtirib olgan bo'lsalar kerak.

Holbuki, yahudiylarning o‘z milliy ijro uslubi saqlanganda edi, boshqa davlatlarda istiqomat qiluvchi yahudiylar ham birdek ovoz toifalarida aytishlarini kuzatar edik. Amalda esa bunday emas.

Bunday aytish xususiyatlari ko‘proq tojik millatiga mansub kishilarning ovozlariga biroz yaqindir. Buxoro yahudiylari forsiy tilni o‘rganib olishi bilan birga ularning ijro ko‘nikmalarini, ovoz ishlatish uslublarini ham o‘zlashtirishganga o‘xshaydi. Chunki, ular orasida yashab turishi sababli muayyan muhitdan kelib chiqib, shunday moyillik paydo bo‘lgan, mahalliy aholi urf-odatlariga bo‘ysungan deyishimiz mumkin.

Musiqiy tovushlar unli a va o bilan tanglayda ko‘proq eshitiladi. O, u, ye va i, a yoki o kabi unli tovushlarni baland pardalarda olish nisbatan biroz qiyinroq kechadi. Baliqchilik hofizlardan Mamadxo‘ja Eshon xirgoyi qilsa Nuriddin aka, Sayda Qori, Shokir Qori akalar tanglay qilib aytar edi.

Demak, ovozni hamma vaqt tanglay orqali ishlatish kerak, bunda ovoz unchalik charchamaydi ham.

Xonandaning ovozi og‘iz bo‘shlig‘ining pastki qismidan chiqarilsa, unda baland pardalari mutlaqo ololmaydi. Shuning uchun albatta uning baland tomoni, ya‘ni tanglay tomonidan, aylantirib chiqarish kerak. Yana bir maslahat. Ovoz og‘izning ichkarisidan aytilsa, o‘ng tomondan osonroq chiqadi-yu, ammo Buxoro yahudiylarining erkak kishi tovushiga o‘xshab qoladi. Bundan ma‘lumki, og‘izning ichkarisidan tovushni chiroyli, yoqimli qilib chiqarib bo‘lmaydi. Aksincha, odatda yoqimsizroq tovush chiqadi.

An‘anaviy xonandalikda hofizona yo‘lni talabalarga singdirish uchun, ularga “Shashmaqom”ning saraxbor qismlaridagi hanglarga xos va milliy ohanglarga doir amaliy mashqlarni muntazam berib borish o‘qituvchining vazifalaridan biri bo‘lmog‘i kerak. Bundan tashqari, navbat bilan va xonandaning imkoniyati darajasida qo‘shiqchiligimizda mavjud bo‘lgan Buxoro ijro yo‘llari, Xorazm ijro yo‘nalishi, Qo‘qon ashula aytish uslublarini talabalarga tanishtira borish kerak. Har bir voha, vodiyni o‘ziga xos harakterli qo‘shiqchilik yo‘llari bor.

Katta ashulani o'rgatish esa, albatta 3 kursdan amalga oshirilsa, ayni muddao bo'ladi. Xonandani ijroda zukkolikka yo'naltiruvchi omillardan biri – jo'rnavozlik amalidir. Jo'rnavozlikni yo'lga qo'yish, xonandalarga o'rgatish uchun, avvalo ovozi bir-biriga tushadigan yigit qizlarni juft-juft qilib aytishga jalb qilib borish lozim. Shunday qilinsa, talabalar bir-birining ijrosini to'ldirib boradi. Har bir kurs uchun imkoniyati doirasida tuzilgan dastur asosida musiqiy asarlar o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir.

II-BOB. O'ZBEK AN'ANAVIY XONANDALIK MAKTABI
NAMOYONDALARI. O'ZBEKISTON XALQ HOFIZI BEKNAZAR
DO'STMURODOV

Asrlar silsilasida Qashqadaryo diyorida zabardast hofizlar, elga mashhur dostonchilar, shoiru-fozillar yetishib chiqib, ko'hna o'lkaning dong'ini mag'ribdan mashriqqacha yoyib tarannum etib kelmoqdalar.

Tojiddin Murodov, O'lmas Saidjonov kabi san'atimiz darg'alari voha ijrochilik maktabining ilg'or ijrochilari sifatida xalqning ardog'iga, hurmatiga sazovor bo'lganlar.

Beknazar Do'stmurodov ana shunday el ardog'idagi hushnafas xonandalarimizdan hisoblanadi.

Hayoti va ijodi

1957 yil 15 iyunda Yakkabog' tumanida tug'ilgan. – O'zbekiston xalq hofizi (2001 yil). Toshkent davlat teatr va rassomlik sanati institutini tugatgan (1980 yil).

Muqimiy teatrida aktyor va xonanda (G. Xugayev va X. Pliyevlarning “Xotinimning eri” spektaklida Po‘lat obrazi va boshqalar), “Maqom” ansamblida xonanda (1988 yildan). Mumtoz ashula, katta ashula va maqom yo‘llarini O. Hotamov, F. Mamadaliyev, O. Otaxonov, A. Ismoilovlardan o‘zlashtirgan. Repertuaridan Shashmaqom va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari (“Saraxbori Navo”, “Saraxbori Segoh”, “Chorgoh” “Ushshoq” va boshqalar), mumtoz va zamonaviy bastakorlar ashulalari (“Firoqingizda”, “Guluzorim”, “Sensiz”, “Vatan yagonadir” va boshqa), katta ashulalar (“Yovvoyi Chorgoh”, “Diyorim O‘zbekiston”, “O‘zbekiston madhi”, “Muborak to‘yga keldik” va boshqalar o‘rin olgan. M. Dadaboyeva, M. Hasanova bilan hamnafaslikda O. Hotamov bastalagan “Ko‘zing ne balo qaro bo‘libdur”)

Malumot: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.2002¹⁸.

